

K.Turg'unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov

***IJTIMOIIY
PEDAGOGIKA
ASOSLARI***



Toshkent – 2008 yil

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta
maxsus ta‘lim vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Halq ta‘lii Vazirligi

Bobur nomidagi Andijon Davlat Universiteti
Muqimiy nomidagi Qo‘qon Davlat pedagogika
instituti

K.Turg‘unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA ASOSLARI

(o‘quv qo‘llanma)

Toshkent

“Fan va texnologiya” 2008 yil

Mazkur o'quv qo'llanma pedagogika yo'nalishidagi Oliy o'quv yurtlarining o'qituvchi - talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda ijtimoiy pedagogika fanining baxs mavzui, uning fan sifatidagi shakllanishi va taraqqiysi, shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni, omillari kabilar o'z ifodasini topgan.

Ma'sul muharrir:

I.Karimov – p.f.n.dotsent

Taqrizchilar:

Abduqodirov R. p.f.n

Ushbu o'quv qo'llanma Z.M.Bobur nomidagi Andijon Davlat Universiteti, Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika institutining o'quv - uslubiy Kengashlarining yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsya etilgan

Kirish

Mamlakatimizda qonunlar ustivorligiga amal qilinadigan demokratik jamiyatni barpo etishga kirishilgan bugungi kunda jamiyatimizning barcha a'zolarini, birinchi navbatda o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy ruxda tarbiyalash g'oyat dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, har bir shaxs birinchidan, jamiyatimizning a'zosi sifatida ijtimoiy hayotimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlarning yaratuvchisi, jamiyat sub'ekti bo'lsa; ikkinchidan esa, u mazkur jarayonning qatnashchisidir. Bu jihatdan olganda inson jamiyatning ob'ektidir.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-ma'naviy hayotning rivojlanishi murakkab jarayonlardan iborat. Albatta, bunday jarayon kishilarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bilim saviyasi yetarli bo'lgan, e'tiqod - iymoni but bilgan kishilar har qanday murakkabliklar boshqacha qilib aytganda, barcha qiyinchiliklarni bardosh bilan bartaraf etishga harakat qilsa, ba'zilar bunday xolatdan esankirab qoladilar. Natijada ijtimoiy hayotga loqaydlarcha munosabatda bo'ladi, ba'zi birlar esa hayotning yengil tomonini tanlaydilar. Bunday kishilar o'zlarining xuzur halovatlarini o'ylaydilar. Buni bozor iqtisodiyoti sharoitidagi qiyinchiliklar yoki turli mafkuraviy g'oyalar oqimi harakatidagi jarayonidan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari hozirgi vaqtda ijtimoiy hayotimizga, turmush tarzimizga yot bo'lgan giyoxvandlik, foxishabozlik, qonunbuzarlik, turli aqidaparastlik kabi illatlarning ham suqulib kirib kelishi ayrim kishilar, ayniqsa yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunday ekan, salbiy og'ishlar girdobiga kirgan shaxslar bilan tarbiyaviy ishlar ko'lamini kuchaytirish, ta'sir ko'rsatishning darajasini oshirishni taqozo etadi.

Bu xususda yurtboshimiz I.A.Karimov o'zining barcha nutq va asarlarida, ayniqsa, «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» kitobida alohida ta'kidlab o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining markazini tashkil etilishligini uqtiradi.

Buning uchun esa keng omma shu jumladan salbiy og'ishga moyil bo'lgan shaxslar bilan shug'ullanishning faol yo'l, usul, vositalarini aniqlash, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning uslubiyotini ishlab chikish zarur. Bunday ma'suliyatli ish esa umumiy pedagogikaning alohida soxasi bo'lgan «Ijtimoiy pedagogika»ning zimmasidadir. Chunki, tarbiyaviy ish nafakat ta'lim muassasalarida, balki, ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida amalga oshiriladi.

Keyingi yillarda pedagogika yo'nalilishidagi oliy o'quv yurtlarining pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida "Ijtimoiy pedagogika" fani o'qitilib kelinmoqda. Bizningcha, bu fanni barcha oliy o'quv yurtlarining mavjud ta'lim yo'nalishlarida o'qitilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi shundaki, mazkur o'quv yurtlarini tamomlab tegishli joyga mutaxassis bo'lib kelganlar o'z navbatida o'zi faoliyat ko'rsatayotgan ob'ektda ijtimoiy pedagogik vazifasini ham bajaradi.

Mazkur o'quv qo'llanma tayyorlashda respublikamizdagi yetakchi pedagog tadqiqotchilar Qurbonov M.Q., Qurboniyazova Z.Q., Begmatov A., Isaqova M., Rossiyalik pedagoglar Galaguzova M.A., Mudrik A.V., Podlasiy I.P. hamda Toshkent Davlat pedagogika Universitetining "Pedagogika", "Defektologiya» kafedralaridagi materiallardan ijodiy ravishda foydalanildi.

Mavzu: Ijtimoiy pedagogika haqida tushuncha

Reja:

1. Ijtimoiy pedagogikaning mazmuni, maqsad va vazifalari.
2. Ijtimoiy pedagogikaning tarkibiy qismlari.
3. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy tushunchalari.
4. Ijtimoiy pedagogika fanining tadqiqotmetodlari.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy, pedagogika, ijtimoiylashuv, ob'ekt, predmet, falsafa, etika, sotsiologiya, etnografiya, etnopsixologiya, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiylashuv kategoriya, ijtimoiy ta'lim, ijtimoiy pedagogik faoliyat, metod.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi tutgan o'zni, mohiyati haqida fikr yuritishdan ilgari «Ijtimoiy pedagogika» atamasiga e'tiborni qaratish zarur. Zero unda mustaqil "Ijtimoiy", "Pedagogika" yo'nalishdan iborat bo'lgan mustaqil fan mujassamlashgandir.

Bir necha fanlarning bunday birlashuvi tasodifiy xol bo'lmasdan balki, u ixtisoslashuv jarayonlari bilan bog'liqdir. Darhaqiqat fan olamida keyingi yillarda ixtisoslashuv jarayoni bir muncha rivojlandi. Buni birgina pedagogika fani misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, «Maktabgacha pedagogika», «Maktab pedagogikasi», «Maxsus pedagogika», «Kasb-xunar pedagogikasi», «Oila pedagogikasi», kabilar.

Fanlarni bu taxlitdagi o'zaro birlashuvining asosida ma'lum bir maqsadga qaratilganlik yotadi. Bu xolni «Ijtimoiy pedagogika» dan ham aniq ko'rish mumkin. Darhaqiqat ijtimoiy pedagogika ham pedagogika kabi ta'lim tarbiya jarayoni va xodisalarini o'rganadi Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, u ularni muayyan o'ziga xos yo'nalishda o'rganadi. Chunki, mazkur fanning o'ziga xos bo'lgan tomoni "Ijtimoiy" iborasida mujassamlashtirilganligidir.

"Ijtimoiy" (lotincha – socialis – umumiy) tushunchasining asosini shaxslar, shaxslararo munosabatlarning turli shakllari bilan bog'liq jarayonlar tashkil etadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agarda pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodlarning ta'lim-tarbiyasi haqidagi fan bo'lsa, ijtimoiy pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonlarida bolaning jamiyatdagi hayotga qo'shilishiga bog'liq qonuniyat va xodisalarni o'rganadi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, bolaning jamiyatga "kirish" jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani qo'lga kiritishi (bilim, qadriyat, yurish-turish qoidalari) bilan bog'liqdir. Buni ijtimoiylashuv deyiladi.

Agarda biz ijtimoiy pedagogika mohiyatini uning ob'ekt va predmetini qiyoslash orqali aniqlamoqchi bo'lsak quyidagi holat kelib chiqadi. Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob'ekti- bu bola, biroq o'rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblansa, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlaridir.

Shu sababli ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, hamda insonlar bir-birlari bilan qanday muomalaga kirishishlarini, nima uchun bir guruhga birlashishlarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Shuningdek u bu muammolarni ijtimoiy pedagogika vazifalariga mos ravishda o'rganadi. Bugungi kunga kelganda ijtimoiy pedagogika mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozirda uning nazariy va amaliy faoliyati sohasiga maktab va maktabdan tashqari muassasalardagi tarbiya va qayta tarbiya, bolalar uylari, qariyalar uylarida yashovchilarga g'amxo'rlik, huquqbuzarlar bilan ishlash, kabilar kiradi. Ijtimoiy pedagogikaning o'ziga xosharakteri uning boshqa fanlar bilan munosabatida bevosita namoyon bo'ladi.

Falsafa va ijtimoiy pedagogika. Falsafa inson borlig'i masalalarini o'rtaga qo'yadi va ularga javob topishga harakat qilib, dunyoqarashning umumlashgan tizimini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagogikaning "ijtimoiy tarbiya falsafasi" bo'limi inson va uning tarbiyasiga muayan qarashlardan kelib chiqadi va bu qarashlarda har doim u yoki bu falsafiy asoslarga suyanadi.

Etika va ijtimoiy pedagogika. Etika axloqiy tasavvur va qarashlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, shuningdek, u tartibga solayotgan axloqiy ong shakllarini va ularning axloqiy faoliyatini tahlil qiladi. Ijtimoiy pedagogika etika shakllantirgan tamoyillardan foydalanadi hamda tarbiya usullari va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Sotsiologiya va ijtimoiy pedagogika. Sotsiologiya-jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tarbiya uslubiyati rivoji, faoliyat yuritishi, shakllanish qonuniyatlari haqidagi fan. Ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi ijtimoiylashuv muammolarini o'rganish jarayonida ijtimoiy bitim sohalarining bir qator ma'lumotlari (yosh, shahar va qishloq, dam olish, ommaviy aloqalar, yoshlar, axloq, ta'lim, jinoyatchilik, din, oila sotsiologiyasi)dan foydalanadi.

Etnografiya, etnopsixologiya va ijtimoiy pedagogika. Etnografiya halqlarning maishiy va madaniy xususiyatlarini o'rganadi. Etnopsixologiya insonlar ruhiyatining etnik xususiyatlari, milliy karakteri, milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishi qonuniyatlari, etnik steriotiplarini o'rganuvchi bilim sohasi. Ijtimoiy pedagogika o'zining asosiy muammosi bo'lgan ijtimoiylashuv jarayonini nazariy va amaliy jihatdan asoslashda etnografiya va etnopsixologiya fanlariga ham murojat qiladi

va oziqlanadi. Jumladan, ijtimoiy pedagogikada umuminsoniy tarbiya tamoyillariga mos tushadigan va o'z navbatida etnosda shakllangan tarbiya usullaridan shu halq doirasida ijtimoiy tarbiya tizimida foylanish tavsiya etiladi.

Ijtimoiy va yosh psixologiyasi hamda ijtimoiy pedagogika. "Ijtimoiy psixologiya" insonlarni ijtimoiy guruhlarga qo'shilishlari xolatini keltirib chiquvchi inson faoliyati va yurish-turish qonuniyatlari, shuningdek bu guruhlarning psixologik ta'riflarini o'rganadi. "Yosh psixologiyasi" esa inson ruhiyati dinamikasi va yosh xususiyatlari shuningdek shaxs rivojlanishining yoshga bog'liq omillarini ham o'rganadi. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiylashuv va viktimologiya (jinoyatshunoslik) muammolarini o'rganishda va ijtimoiy tarbiyaning uslubiyotini tadqiq etishda ijtimoiy va yosh psixologiyasi ma'lumotlaridan foydalanadi.

Shu bilan birga ijtimoiylashuv muammolari sotsiologiya tomonidan o'rganilganligi sababli ijtimoiy pedagogika ba'zi sotsiologik nazariya, usul va vositalardan ham foydalanadi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqilgan holda ijtimoiy pedagogikaga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

ijtimoiy pedagogika-shaxsni ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari, texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo'llashga qaratilgan pedagogika sohasi.

Bundan tashqari, ijtimoiy pedagogikaga bola ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganadigan va mutaxassislarni ijtimoiy tarbiya va ta'lim usullari va texnologiyasi bilan ta'minlaydigan fan sifatida ta'rif bersa ham bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogika fan sohasi sifatida bir qator fazifalarga ega bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

Nazariy vazifa: ijtimoiy pedagogik bilimlarni to'plab zamonaviy jamiyatda o'rganayotgan jarayon va xodisalarning to'liq tasvirini tuzishga intilishda namoyon bo'ladi.

Amaliy vazifalarga: - ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiylashuviga tashkiliy-pedagogik va psixologik yo'nalishlardagi ta'sirini samarali takomillashtirish ishlarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan ishlar kiradi. Bunday ishlar qatoriga bolalar (yoshlarda) ongida, xatti-harakatida ijobiy fazilatlarining shakllanishiga yaqindan yordam beruvchi, yo'l - yo'riq, shakl, vositalarini aniqlash va ularni tadbiq etish, har qanday vaziyatdan mustaqil chiqib ketishning samarali yo'llarini aniqlash, atrofdagi kishilar bilan muomala qilishni o'rganish, hayot mazmuni va maqsadini aniklashga doir tavsiyalar berish; ularda jamiyatdagi xuquq va majburiyatlarini bilishga intilishni rivojlantirish, hamda mustaqillik, o'ziga ishonch xissini shakllantirish;

Insonparvarlik vazifasi - shaxsning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallashtirish uchun maqsadlarni ishlab chiqishda o'z ifodasini topadi. Zamonaviy ijtimoiy pedagogikaning insoniyligi bola va pedagog o'rtasidagi munosabatlarni qattiqqo'llik bilan emas, o'zaro tushunish orqali hal qilishga asoslanadi. Ijtimoiy pedagogning vazifasi bolaning jismoniy, axloqiy va ma'naviy kuchlariga dalda berish, unda jamiyat qabul qilgan xislatlarni tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Bugungi kunda ijtimoiy pedagogikaning vazifalari kengayib bormokda.. Shunga ko'ra bunday vazifalar qatoriga tarbiyaviy, ijtimoiy-xuquqiy, ijtimoiy reabilitatsiya ishlarini ko'rsatish mumkin.

Tarbiyaviy vazifa bolani atrof muhitga qo'shilish, uning ijtimoiylashuv jarayoni, o'quv va tarbiya jarayoniga ko'nikishini ko'zda tutadi.

Ijtimoiy - huquqiy vazifa - davlatning bolalarga g'amxo'rliqi, ularning huquqiy himoyasini bildiradi.

Ijtimoiy reabilitatsion vazifa - nogiron, jismoniy va ruhiy nuqsonlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o'quv ishlarini olib borishdir. Bunda asosiy ijtimoiy vazifalarni pedagog bajaradi. Shunday ekan, o'zining pedagogik faoliyatida quyidagilarga o'z e'tiborini qaratishi lozim:

- falokatga uchragan bola(o'smir)larga yordam ko'rsatish. Inqirozdan chiqish yo'llarini topish, qiyin vaqtda qo'llab-quvvatlash;

- bola(o'smir)ni, uning holatini, oila va maktabdagi munosabatlarini o'rganish;

- bolani o'rab turgan va unga ta'sir qiluvchi turli ijtimoiy sohalaridagi ijtimoiy tarbiya holatini tahlil qilish;

- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish, o'zlashtirish, ommalashtirish;
- u bola(o'smir) faoliyatini o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini o'qitish va o'z hayotini mustaqil tashkil qilishni bilishga qaratishi ;
- bola (o'smir) muammolarini hal qiluvchi, uning inqirozi, huquqlariga aloqador tashkilot, mutaxassislarni birlashtirish bilan ham shug'ullanish;
- ijtimoiy tarbiyaning turli muammolarini o'rganishni tashkil qilish, bu borada takliflarni kiritish;

Ijtimoiy pedagogika bilim sohasi sifatida bir nechta bo'limlardan iborat.

Ijtimoiy tarbiya falsafasi - falsafa, etika, ijtimoiy va pedagogikalarning uyg'unlashuvidan kelib chiqadi. Unda amaliy, uslubiy va dunyoqarashga oid masalalar o'rganiladi. Xususan ijtimoiy tarbiya va uning vazifalari ta'rifi beriladi; inson qiyofasini muayyan tushunish asosida rivojlanish, ijtimoiylashuv va tarbiya nisbatiga umumiy yondashuvlar ishlab chiqiladi; ijtimoiy tarbiyaning qadriyat va tamoyillari ishlab asoslaniladi va boshqalar.

Ijtimoiy tarbiya satsiologiyasi - ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya konteksti va ijtimoiy tarbiyani ijtimoiylashuv tarkibi sifatida o'rganadi. Olingan bilimlar ularning tarbiya solohiyatlaridan foydalanish, ijtimoiylashuv jarayonida inson rivojiga ta'sir etish mumkin bo'lgan ijobiy ta'sirlarni kuchaytirish va salbiy ta'sirni kamaytirishning usullari va yo'llarini izlab topish imkonini beradi. Umuman olganda ijtimoiy tarbiya satsiologiyasi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar jamiyat tarbiyaviy kuchlarini birlashtirish yo'llarini qidirishga asos bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasi - ijtimoiy tarbiyaning faoliyat yuritishini tavsiflaydi, tushuntiradi va bashorat qiladi. Ijtimoiy tarbiya darajasidan kelib chiqib, ijtimoiy tarbiya ijtimoiyogiyasi ma'lumotlarini inobatga olib ijtimoiy tarbiya individual, guruh, ijtimoiy sub'ektlari nima ekanligini va ular o'zaro qanday munosabatda bo'lishlarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya psixologiyasi - guruh va insonlarning ijtimoiy psixologik tavsiflari, ularning turli yoshlardagi xususiyatlari asosida ijtimoiy tarbiya sub'ektlarining o'zaro munosabati samaradorligining psixologik sharoitlarini aniqlaydi.

Ijtimoiy tarbiya uslubiyati - ijtimoiy tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil qilishning yangi usullarini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy tarbiya menejmenti va iqtisodiyoti bir tomondan jamiyatning inson mablag'iga ehtiyojini, boshqa tomondan ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda foydalanishi mumkin bo'lgan jamiyatning iqtisodiy resurslarini tadqiq etadi. Bundan tashqari bu bo'limda ijtimoiy tarbiya boshqaruvi ham ko'rib chiqiladi.

Ma'lumki, har bir fanni mazkur fanning o'rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida aks etadi. Tushunchavoqey olamni bilish jarayonida yuzaga keladi. Voqeylik o'zgaruvchan bo'lganligi tufayli tushunchalar ham dinamik tarzda o'zgarish va rivojlanish harakteriga ega. Boshqacha qilib aytganda tushunchalar tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Har qanday fanning rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan kategoriyalariga birlashishadi. Fan kategoriyalari shu fanda qo'llaniladigan yirik nazariy va amaliy tushunchalardir. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari "ijtimoiy pedagogik faoliyat" "ijtimoiy ta'lim" va "ijtimoiy tarbiya" bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq atvorning me'yor va qoidalari haqidagi bilimlar, tajribalarni o'zlashtirib boradi.

Bolalar ijtimoiylashuvining o'ziga xos xususiyati shuki, ular jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. Faqat ular bu darajani hayot davomida egallaydilar. Shuning uchun bolalar ijtimoiylashuviga ota-onalar, qarindoshlar, bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar (psixolog, shifokor, pedagoglar – "agent"lar) bu masalaga alohida e'tibor bermoqlari zarur. Chunki, bolalar hayotda zarur bo'lgan ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o'zlashtirishlari va ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir.

Buni ijtimoiy pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasida ta'lim olish jarayonida bolalar avvalo akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir vaqtda

u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalarni ham qo'lga kiritadi. Bular esa bolalarning ijtimoiylashuviga muhim ahamiyatga ega.

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish va unda ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni "ijtimoiy ta'lim" deyiladi.

Tarbiya pedagogikaning asosiy ob'ekti sifatida uning rivojlanish tarixi mobaynida o'rganib kelingan. Chunki, bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni ifodalaydi.

Boshqa tomondan tarbiya-ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug'aviy ma'nosiga qaraganda bir muncha kengdir.

Darhaqiqat, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo'naltirishdir.

Bu sharoitlar individual va guruhli sub'ektlarning uchta o'zaro bog'liq va shu paytning o'zida mazmuni, shakli, usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo'lgan jarayonlar (bolalar, o'smirlar, o'spirinlar)ni qamrab oladi. Ularning ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularga individual yordam ko'rsatishning o'zaro munosabati jarayonida yaratiladi. Guruh (jamoal)larda ijtimoiy tajribani tashkil qilish esa ularning hayotiy faoliyatini yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. Bunda guruh a'zolarining o'zaro munosabatlarini tashkil qilish, guruhdagi faoliyatni rag'batlantirish va norasmiy mikroguruhlariga ta'sir etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy tajriba keng ma'noda turli ko'nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me'yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, ko'nikish, shuningdek o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini aniqlab olish birligidir.

Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda ko'maklashish, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish, uning jamiyatdagi mavqei, o'rnini yuksaltirishda namoyon bo'ladi.

Individual yordam - boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo'lgan bilim, malakalarni o'zlashtirishda insonga ongli yordam berish, insonning o'z qadriyatlarini anglashi, o'z-o'zini anglashini rivojlantirish, oila, guruh, jamiyatga mansubligi hissini rivojlantirishdir.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash joizki, ijtimoiy tajriba, ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, harakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi, ularning ijtimoiy madaniy mansubligiga ham bog'liq. Bu jihatlar turli ta'lim muassasalari va tashkilotlarda farqlanadi. Masalan pedagogik, texnikaviy, tibbiy, xuquqiy, iqtisodiy kabi.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat esa uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir.

Umuman olganda o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib uning mazmuni, harakteri tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilganidir.

Ijtimoiy pedagogika o'zining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda quyidagi tadqiqot metodlaridan keng ko'lamda foydalanadi;

- umummantiqiy metodlar (analiz, sintez, umumlashtirish, qiyoslash, modellashtirish, loyihalash)

- umumpedagogik metodlar (kuzatish, suxbat; tajriba; manbalarni o'rganish; qayta ishlash, umumlashtirish)

- xususiy pedagogik - psixologik metodlar (individual va guruhli o'rganish, xurmatlash, tushuntirish, ijobiy fazilatlariga tayanish, ijtimoiy fikrlarni hisobga olish, tashxislash ekspert xulosalarini hisobga olish);

- tarixiy metodlar tarixiy qiyoslash, genetika, strukturaviy (alohida belgilar, shartli guruhlar) tarixiy manbalarni o'rganish;

- sotsiologik metodlar (anketa, so'rovnoma, intervyu olish, sotsiometrik, biografik, monitoring, test topshiriqlari, modellashtirish);

- matematik – statistik (taxlil, natijalarni qayd etish, tekshirish).

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy pedagogika fanini o'rganishning zaruratini qanday baholaysiz?

2. Ijtimoiy pedagogika faniga ta'rif bering?
3. Uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Ijtimoiy pedagogika fanidagi dolzarb muammolar xususidagi fikrlaringiz?

Mavzu: Ijtimoiy pedagogika fan sifatida

Reja:

1. Ijtimoiy pedagogika falsafaning tarkibiy qismi.
2. Ijtimoiy pedagogikaning ilmiy fan sifatidagi tuzilmasi.
3. Ijtimoiy pedagogikaning amaliy ahamiyati

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy falsafa, shaxs va uning shakllanishi, jarayon, inson va jamiyat, ijtimoiy muhit, ilmiy fan, metodologiya, tuzilma, amaliy faoliyat

Ijtimoiy falsafa — jamiyat va inson muammolari, insonning jamiyatdagi o'rni, munosabatlari haqidagi fandir. Ijtimoiy falsafaning asosiy tushunchalari ijtimoiy adolatlilik va insonni ximoya qilish, insonning ijtimoiy muhitdagi o'rni, insonning jamiyatdagi o'rni kabilardir. Uning vazifasi, nazariy tomondan jamiyat rivojlanish jarayoni va undagi insonning o'rnini talqin qilishdir.

Jamiyat va shaxs — ijtimoiy falsafaning asosiy muammosi, hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda shaxsning rivojlanishi, uning jamiyatdagi bog'liqligi va jamiyatning insonlarga bog'liqlik masalasidir.

Ijtimoiy pedagogikada shaxs — tarbiya ob'ektidir. Shaxs va uning rivojlanishi, shaxsning yoshiga xos xususiyatlari ta'lim va tarbiya jarayoni, muhit va tarbiyaning shaxs rivojlanishidagi ta'siri va boshqalar.

Falsafa ham, pedagogika ham inson va davlat, inson va avlod, inson va oilaning bir —biriga ta'siri, bu jarayondagi shaxsning rivojlanishi, uni shakllanishini o'rganadi.

Ijtimoiy pedagogikaning masalalaridan biri —bu shaxs va muhitning munosabatlaridir.

Hozirgi zamon sharoitida bizning mamlakatda ijtimoiy falsafa jamiyatdagi bo'layotgan o'zgarishlarni aks ettiradi, yangi siyosiy, iqtisodiy, oilaviy, milliy va diniy munosabatlar shular jumlasidandir. Hozirgi zamon oilasi, undagi tinchlik, maktab va ta'lim, yoshlar va jamiyat, shahar va tabiat, bozor va byudjet, milliy munosabatlar yangicha fikrlash va tushuncha xosil qilishni taqazo etadi. Chunki bu muammolar markazida shaxs, inson taqdiri turadi ijtimoiy iqtisodiy, madaniy va ta'limiy muammolarning o'zaro mutanosibliги hisoblanadi

Ijtimoiy falsafa va ijtimoiy pedagogikaning o'zaro aloqasini, ulardagi umumiylikni biz nimada ko'rishimiz mumkin?

Ijtimoiy falsafa — inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarining asosiy muammolarini aniqlaydi, ijtimoiy pedagogika esa bo' muammolarning bir qismini bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Bu muammolar: shaxs va muhit, shaxs va ta'lim, shaxs va oila, shaxs va ma'naviy madaniyat, shaxs va uning ijtimoiy mehnatga tayyorgarligi va ishtirokidir.

Shunday qilib hozirgi zamon sharoitida inson va tabiat deb atalmish ijtimoiy — falsafiy muammo juda muhim bo'lib turibdi.

Ijtimoiy pedagogika o'zgarayotgan muhitning shaxsni shakllanishiga ta'sirini, yangi jamiyatda o'sib kelayotgan avlodga ta'lim berish ijtimoiy muammosi qanday hal qilinayotganini taxlil qiladi.

Ijtimoiy falsafa ijtimoiy pedagogikaga nisbatan metodologiya hisoblanadi. Zotan jamiyatning ijtimoiy muammolari mavjud ekan, ular ijtimoiy pedagog, ijtimoiy xodimga yordam berishga da'vat etilgan.

Ijtimoiy falsafa o'zida jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini aks ettiradi. U inson oldida turgan ijtimoiy, maishiy, iqtisodiy, tabiiy, huquqiy muammolarni hal etish bilan birga psixologik va pedagogik muammolarni ham bartaraf etishga sharoit yaratadi.

Ijtimoiy pedagogika shaxs va jamiyat muammosiga murojat qilgan holda insonning jamiyatdagi munosabatlarini tartibga soladi. Ayrim tang hollarda ayrim oilalarga o'smirni jamiyatda o'z o'rnini topishiga hayotiy sharoitlarga moslashishiga yordam beradi. Ijtimoiy pedagogika yangi iqtisodiy munosabatlarni oiladagi munosabatlarga va bolalar tarbiyasiga ta'sirini taxlil qiladi.

Ijtimoiy pedagogika birinchi navbatda bolalik muammolariga murojat qiladi. Hamda u shaxs tarbiyasi uning ma'naviy axloqiy sifatlarini shakllanishi murakkab vaziyatlarda qo'llab — quvvatlanishi masalalariga murojat etgan holda bolaga jamiyat hayotiga moslashishiga yordam beradi.

Bugun ijtimoiy pedagogika insonni jamiyatdagi o'rni haqidagi, shaxsning ijtimoiylashtirish haqidagi, hozirgi zamon sharoitida bolalik qiynchiliklari haqidagi bilimlar majmuidir.

Ijtimoiy pedagog amaliyoti bolaga (o'smiringa) jamiyatda ijtimoiy — ma'naviy muvozanatni saqlashga, yangi munosabatlarni yaratishga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy pedagogika o'z oldiga qanday asosiy maqsadlarni qo'yayotganini yuqoridagi fikrlardan bilib olsa bo'ladi. Shuning uchun ijtimoiy pedagogika ijtimoiy falsafa singari boshqa fanlar: psixologiya, fiziologiya, anatomiya, mantiq, tibbiyot, iqtisodiyot bilan uzviy aloqada bo'lmay turib faoliyat yuritmaydi.

Ijtimoiy pedagogika ilmiy fan sifatida o'zining ob'ekti deb inson va sotsiumning o'zaro ta'siri (turlicha ko'rinish va hollarda) hisoblanadi, ya'ni xodisa va jarayonlarning o'ta yaxlitligi amaliy ijtimoiy — pedagogik faoliyat uchun manba va o'zgartirish soxasi bo'lib qoladi. Ijtimoiy pedagogika ilmiy fanning predmeti bo'lib bu xolat shaxs va sotsium o'zaro ta'sirining umumiy va pedagogik qonuniyatlari hisoblanadi. Aynan mana shu tomoni uni boshqa pedagogik fanlarda farqini ko'rsatadi va unga o'zaro bog'liqlik va oshkoralik harakterini kasb etadi.

Ushbu fan maqsadi — inson va sotsium o'zaro ta'siriga ilmiy pedagogik asos bo'lish, amaliyot ishlar darajasida bu o'zaro ta'sirini har tomonlama uyg'un bo'lishi uchun ijtimoiy.— pedagogik faoliyatni ilmiy asosini sifat va samaradorligini yuqori ko'tarish. Ushbu maqsadga erishish ilmiy fan sifatida ijtimoiy — pedagogika vazifasi orqali hal etiladi. Bular bilim (tadqiqot) variantlari tavsiya beruvchi, ta'limiy, o'zaro bog'lovchi vazifalaridir.

Ijtimoiy pedagogika ilmiy fanining vazifalari 3 guruhga bo'lingan:


Birinchi (Nazariy – amaliy) guruh — ijtimoiy pedagogika faoliyatini tadqiq etish bilan bog'liq sotsium rivojlanishi qonuniyatlari, undagi munosabatlar, sub'ektlar va institutlarning ijtimoiy ishlari; ijtimoiy pedagogik faoliyatining turli ko'rinishlar va tiplarda, ular taxlilining turlicha darajalarda ziddiyatlarni izlab topish, ularni hal etish tendensiyalarini aniqlash; ijtimoiy sohadagi mutahassis faoliyatining prinsiplari, mazmuni, usullari metodlari va shakllarini ishlab chiqish; ijtimoiy institutlarning yuzaga keltirishning tashkiliy asoslari; faoliyat ko'rsatish, chet mamlakatlar hodimlari, tashkilotlari va institutlarini ijtimoiy pedagogik faoliyatini tahlil etish va tajribalarini baholash bilan bog'liqdir.

2. Ikkinchi guruh - vazifalari hususiy (shaxsiy) metodologik, nazariy va ilmiy metodik asosini shakllantirish maqsadiga ega; ijtimoiy — pedagogik ilmiy yo'nalish mazmunini tanlab olish, ilmiy bilimlar sohasi sifatida ijtimoiy pedagogikani mantiqiy, ilmiy fanni jamlash.

3. Uchunchi guruh - vazifalari ijtimoiy sohada kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim kopleksini nazariy asosi bilan ya'ni ijtimoiy xodimlar, ijtimoiy pedagog, ijtimoiy yuristlar tayyorlash bilan bog'liq. Bu ijtimoiy pedagogikaning uchunchi sifat ko'rsatkichi bilan belgilanadi. Ijtimoiy pedagogika boshqa gumanitar fanlar va ilmiy — yo'nalishlar bilan mustahkam bog'liq. Jumladan, u ijtimoiy falsafa, ijtimoiy siyosatshunoslik, ijtimoiy psixologik, ijtimoiy huquq, ijtimoiy informatika va statistika; shuningdek boshqarish nazariyasi, ijtimoiy meditsina va boshqalar bilan bog'liqligi ham mavjud. Ijtimoiy pedagogika ma'lum darajada (o'z tabiatiga ko'ra) fanlararo ilmiy fan hisoblanadi, fanda ham va jamiyatda ham o'zining ochiqcha harakteri bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy pedagogikaning umumiy fanlar tizimida inson va jamiyat to'g'risidagi fan sifatidagi o'rni aniqlab uning boshqa fanlar bilan aloqasini hisobga olish uning metodologik asosiini aniqlash imkonini beradi.

Ijtimoiy pedagogikaning ilmiy fan sifatidagi tuzilishi



ma’
bori
ijtim
Uni
uch
rivo
opti
xola
ijtim
Insc
mac
boy

im
ijti
si s
ni v
ng
aro
yg’
ogil
oshi
fati
n.
—
jra
lish

odiy
tim
ni
yok
, t
ma
nali
ma
yok
kel
hmo
ing
at t

moiy
lanib
nson
nadi.
tirish
moiy
sirini
ta’sir
katta.
nkin.
yotiy
moiy

Bunday guruhlash usuli ijtimoiy pedagogik faoliyat bilan murakkab xolatga tushib qolgan shaxslarning (nogiron, narkoman va hokazo) muammolariga tezkor e’tibor berish imkoniyatini beradi. Mavjud shaxsni muammoli xolatini hal etish (axolini mazkur ijtimoiy muammoli qismga aloqador qismiga tegishli) bilan mazkur sohada maxsus kasb tayyorgarlikdan o’tgan mutaxassislar shug’ullanmog’i zarur.

Bu o’rinda o’sha shaxs ijtimoiy pedagogning mijoz sifatida emas, balki ijtimoiy — pedagogik faoliyatning bevosita hamkori bo’lib qolsagina faoliyat samarali bo’ladi. Bunday yondashuv ijtimoiy — pedagogik faoliyatning, profilaktik, ogohlantiruvchi karakterda bo’lishini ta’minlaydi va u axolini shakllanayotgan muammoli guruhini shakllanishini oldini olish va kelib chiqish sabablarini bartaraf etish yoki ogohlantirish, aholini ijtimoiy muammoli guruhini ijtimoiy

— stabil guruhga aylantirish, ijtimoiy stabil guruhini ijtimoiy — istiqbolli guruhlarga o‘tkazish hisobiga kengaytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, ijtimoiy — istiqbolli guruhlar stabilligini saqlashdan iborat.

Ko‘plab tadqiqotchilarning fikricha amaliy faoliyatning bir soxasi sifatida ijtimoiy pedagogika integrativ — ta’limning, adabtiv — korreksion, ekspressiv — yo‘naltiruvchi, nazorat — sanksionerlarni amalga oshiradi. Ularning o‘zaro birlashuvi o‘zgartiruvchi vazifa bilan shaxsiy pedagogik yo‘naltiruvchi kuchga ega bo‘ladi. Yuqoridagi vazifalarga muvofiq ijtimoiy pedagogikani ob’ektiv — mavzu soxasi va maqsadli yo‘nalishi bilan birga uning vazifalari belgilanadi. Ular adabtatsiya, reabilitatsiya, mobilizatsiya, kompensatsiya, profilaktika, korreksiya, stabilizatsiya, nazorat, targ‘ibot, maorif, ma’muriy va boshqalardan iborat.

Ijtimoiy pedagogika juda keng imkoniyatlar maydoniga ega bo‘lib, davlat va jamiyatning tuzilma elementlari bilan belgilanadi.

Davlat tizimida u o‘zining ta’sirini ta’lim institutlariga, sog‘liqni saqlashga, madaniyat, fan, ishlab chiqarish, boshqaruv organlari, ijtimoiy ximoya organlari va sotsiumning boshqa institutlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Bundan tashqari u axolini turli ijtimoiy guruhlarga ijtimoiy birlashmalar, harakatlar va tashkilotlar, shuningdek diniy muassasalarga, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolar jamiyatining ijtimoiy institutlariga ta’sir o‘tkazadi.

Jumladan, biznes soxasida ijtimoiy pedagogika kichik, o‘rta va katta biznes korxonalariga xomiylik qiluvchilar turli ko‘rinishda vosita sifatida ta’sirini o‘tkazishi mumkin, eng muhimi ushbu soxa ichida ishlovchi va ishlaydigan axoli uchun ijtimoiy dastur korxonasini shakllantirish, shuningdek ijtimoiy sohani rivojlantirishda ushbu sektor - investitsiyasini jalb etishdan iborat. Funktsional jihatdan bunday ta’sir butunicha ijtimoiy muhitni pedagoglashtirishda, sotsiumning turli institutlarini pedagogik imkoniyatlaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida ijtimoiy — pedagogik faoliyatni asosiy umumiy va o‘ziga xos texnologiyasi aniqlanadi va tahlil etiladi. Umumiy texnologiya ichida — ijtimoiy pedagogik tashxis, baholovchi, prognoz qilish, modellashtirish, yaxlitlash dasturlari mavjud. Ushbu dasturlarda qayta aloqa va ijtimoiy — pedagogik faoliyatning bilish va qayta o‘zgartiruvchi axborotlar bilan ta’minlash texnologiyalari o‘z ifodasini topishi zarur. Bular birgalikda ijtimoiy pedagogik faoliyatni texnologik jarayonining zanjirli siklini tashkil etadi. Unga xususiy (o‘ziga xos); ijtimoiy — pedagogik adaptatsiya va reabilitatsiya, profilaktika va kompensatsiya, ta’minlash va mobilizatsiya, korreksiya va stabillashtirish, targ‘ibot — tashviqot texnologiyalarini hal etish kiradi. Ijtimoiy pedagogikani rivojlanishini o‘ziga xos hususiyatlari ishlab chiqilgan, sinab qo‘rilgan va amaliy faoliyatda qo‘llanilgan innovatsion ijtimoiy pedagogik modellar, aholini turli guruhlar bilan ishlarini tashkil etish hisoblanadi. Amaliy ishlar tajribalarini umumlashtirish va oddiy manbalarni shu jumladan pedagogika tarixi bo‘yicha manbalarni umumlashtirish 3 — ta asosiy strategiya yo‘nalishini asoslash imkonini berdi va shunga muvofiq o‘z prinsiplari asosida maqsadlarga erishish va vazifalarni hal etishni ta’minlovchi ijtimoiy pedagogikani rolini ko‘rsatib berdi. Birinchi strategiya — insonni sotsiumga kiritish, ya’ni uni ijtimoiylashtirish, ijtimoiy tarbiyani shakllantirish, rivojlantirish. Ikkinchi strategiya — sotsiumni pedagoglashtirish (uning pedagogik imkoniyatlarini to‘laligicha foydalanish, samaradorligini oshirish). Uchunchi strategiya ijtimoiy — pedagogik faoliyat maqsadiga ko‘ra optimallashtirish prinsiplari asosida inson va sotsium o‘zaro ta’sirini boshqarish. Shunga ko‘ra birinchi strategiya bilan u shaxsni ijtimoiy rivojlantirish;

ikkinchi strategiyaga muvofiq ijtimoiy muhit pedagogikasi sifatida; nihoyat uchunchisiga muvofiq ijtimoiy ish pedagogikasi sifatida ishtirok etadi.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy falsafaning asosiy tushunchalari nimalardan iborat?
2. Ijtimoiy falsafaning bosh muammosini nima tashkil etadi?
3. Nima sababdan ijtimoiy pedagogika ijtimoiy falsafaning tarkibi qismi hisoblanadi?
4. Ijtimoiy pedagogikaning ilmiy bilimlar tizimidagi o‘rni qanday?

5. Ijtimoiy pedagogikaning amaliy turmush jarayonidagi ifodasi nimalarda ko‘rinadi?

Mavzu: Ijtimoiy pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi

Reja:

1. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari
2. Qadimgi davrlarda ijtimoiy pedagogik fikrlar
3. Keyingi davrlarda ijtimoiy pedagogik fikrlarning rivojlanishi

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy pedagogika, shakllanishi, bosqich, yo‘nalish, sivilizatsiya, atama, fan, qadimgi, uyg‘onish, xorijiy mamlakatlar

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixga ega. Uning tarixiy taraqqiyotini bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Birinchi bosqich-qadimgi davrlardan XVII asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy pedagogikaning bu rivojlanish bosqichi tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida tan olinishi bilan karakterlanadi. Bu davrda turli tarbiya nazariyalari paydo bo‘lgan.

Bundan ko‘rinadiki, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida ham ijtimoiylashtirish muammosi mavjud bo‘lgan. Dastlab tarbiya umum faoliyat turi sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, keyinchalik esa o‘ziga xos faoliyat turiga aylangan. Mazkur faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tarbiyachilar paydo bo‘lgan. Vaqt o‘tgan sari tarbiya jarayoni ham murakkablashib borgan, yosh, jins, mazmuniga ko‘ra farqlana borgan, uning axloqiy jihatlariga e‘tibor qaratila boshlagan. Juft oilalarning oilaviy tarbiyasi ham ommalasha boshlagan. Ibtidoiy jamoa tuzumida yashagan barcha elatlarda mehnatning jins va yoshga qarab ajratish an‘anasi bo‘lgan. Mavjud yoshlarni muntazam ravishda turli kasb-xunarlariga o‘rgatishgan.

Bularning hammasi ibtidoiy jamoada ijtimoiy-pedagogik tajribaning ilk ko‘rinishlari mavjud bo‘lganligi haqida tasavvur qilishga imkon beradi.

Agar ibtidoiy davr ijtimoiy pedagogik amaliyotning vujudga kelishiga zamin yaratgan bo‘lsa, qadimgi dunyoning ilk sivilizatsiyalarining paydo bo‘lishi, ijtimoiy-pedagogik fikrning shakllanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. Bu xulosani bizgacha yetib kelgan pedagogik g‘oyalarning yozma manbalari tasdiqlaydi.

Sharqda ijtimoiy pedagogik g‘oyalar odatda muqaddas kitoblar shaklida butun halq mulkiga aylangan (Xitoyda-Shukit, Hindistonda-Vedalar, Misrda-Tot xudosi kitoblari, O‘rta Osiyoda-Avesto va boshqa).

Faqatgina miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o‘rtalari va ikkinchi yarmida ijtimoiy pedagogik g‘oyalarni yaratuvchilarining nomlari ma‘lum bo‘la boshlaydi. Shubhasiz, ijtimoiy pedagogik tafakkurning rivojlanishiga antik davr (yunon va rim) faylasuflari katta hissa qo‘shishgan. Xususan, Suqrot (mil. avv. 469-399 y) “O‘z o‘zingni angla” degan shiorni ilgari surgan va shu bilan ong insonda barcha yovuzlikni yo‘qotishi mumkinligini ta‘kidlagan.

Demokrit (mil. avv. 460-370 y) o‘z ta‘limotida tarbiyada bola tabiatini hisobga olish tamoyilini asoslab bergan.

Aflotun (mil. avv. 423-347 y) ilk marotaba davlat va tarbiyaning o‘zaro munosabati g‘oyasini ilgari surgan. Uningcha, tarbiya ishi davlatning eng muhim vazifasi hisoblangan.

Arastu (mil. avv. 384-322 y) antik dunyoda tarbiyaning eng to‘liq nazariyasini ishlab chiqqan. Aflotundan farqli o‘laroq u inson tarbiyasida asosiy urg‘uni davlatga to‘liq bo‘ysundirishga emas, balki insonning o‘zini manfaatlariga qaratadi. Bundan tashqari, u shaxsning jamoat bilan uyg‘un rivojlanishi to‘g‘risidagi g‘oyani ham birinchilardan bo‘lib o‘rtaga tashlagan.

Feodalizm davri tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari asketizm, dunyo dinlari qoidalariga qattiq amal qilish bo‘lgan. O‘sha davrning (VI-XII asrlar) ijtimoiy-pedagogik g‘oyasini yaratuvchilari o‘sib kelayotgan avlodga singdirmoqchi bo‘lgan axloqiy qadriyatlar orasida hamdardlik, yaqinlarga yordam, xususan kasallar va nochorlarga yordam kabilar ham o‘z ifodasini topgan.

XV-XVI asrda avval Italiyada, so‘ngra Yevropaning boshqa davlatlarida ijtimoiy fikrlar rivojlana boshlagan. Bular orasida shaxs, jamiyatni insoniylashtirish, individuallashtirish alohida

o'rinni egallaydi. Shunday qilib, ijtimoiy pedagogik g'oya bo'lgan gumanizm (insonparvarlik) tushunchasi maydonga kelgan.

Uyg'onish davrida ijtimoiy gumanizm g'oyalarini amalga oshirila boshlanishi mashhur italiyalik pedagog-gumanist Vittorino de Genotre (1378-1446) tomonidan ilk marta "Quvonch uyi" nomli internat maktabning yaratilishi bilan bog'liq.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, antik davrdan e'tiboran Yevropada yetim bolalarni parvarish qilish, ularni tarbiyalash masalasi boshqa qit'alarga qaraganda ijobiy tus olgan. Manbalarga ko'ra ota-onasiz qolgan bolalar uchun ilk tarbiya uylari IV asrda Kesariya (Kichik Osiyo) shaharida Vasiliy Kesariyning tashabbusi bilan paydo bo'lgan. 787 yilda bunday muassasa Milandagi soborda ham tashkil etilgan. O'z-o'zidan ayonki bunday muassasalar ruxoniylar tomonidan boshqarilgan. Bundan ko'rinadiki, Yevropada cherkov «etim va nogiron bolalarning» raxnamosi bo'lgan. XIV asrga kelganda Yevropada bunday tarbiya uylarining soni 30 dan ortiq bo'lgan. Muhimi shundaki, bu muassasalarda faqatgina tarbiya ishi nazariy jihatdangina emas, balki amaliy jarayonda ham amalga oshirilgan (bolalarga amaliy topshiriqlar berilgan).

Parijda 1640 yilda ruxoniy Vinsentom Depolen tomonidan asos solingan tarbiya uyi juda mashxur bo'lgan. Bu muassasa Qirol Lyudovik XIV tomonidan xomiylikka olingan.

Ijtimoiy pedagogika rivojining ikkinchi davri -XVII-XIX asrlar- ijtimoiy-pedagogika eng ilg'or g'oyalar va ilmiy konsepsiyalar bilan boyitilgan davr bo'lgan deb aytish mumkin. Zotan XVIII-XIX asrlar davlat va jamoat institutlari bilan biga ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal qilish g'oyalarining paydo bo'lishi davridir. Tarbiya masalalari jamiyat islohotlari, inson huquqlari tengligi bilan bog'lana boshlangan. Aynan shu davrda ijtimoiy-pedagogikaning asosiy yo'nalishlarining aniq faoliyatda amalga oshishi yuz beradi.

Ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga fransuz faylasufi, yozuvchi, ma'rifatparvar **J.J.Russo** (1712-1778 y) ulkan hissa qo'shgan. U tibbiy huquq, din va tabiiy rivojlanish asosiga qurilgan tabiatan shakllangan tarbiya g'oyalarini ilgari suradi. Rus qomusiy olimi va pedagog **M.V.Lomonosov** (1711-1765 y) o'z "reglamentlari"da tarbiyaning halqparvar g'oyalarini, insonga faol shaxsga bo'lganidek yondashuvni, bolani axloqiy sifatlarini shakllantirish muhimligini bayon etgan.

Yangi ijtimoiy pedagogik g'oyalar fransuz faylasufi va ma'rifatparvari **Klod Adriana Gelvetsiy** (1715-1771 y) ishlarida ham tilga olingan. Ular tarbiya omillari- muhit va pedagogik ta'sir, shaxsiy va jamiyat manfaatlarining birligi masalalaridir.

Shvetsariyalik buyuk pedagog **Iogann Genrix Pestalotssi** (1746-1827 y) o'z faoliyatida ijtimoiy pedagogik nazariyani va amaliyotni birlashtirgan va o'z mablag'lari evaziga yetimlar uchun uylar ochgan.

XIX asr shunisi bilan karakterliki, bu davr mobaynida ijtimoiy pedagogikaning pedagogikadan ajralishi jarayoni sodir bo'lgan bo'lsa; ikkinchidan psixologiya, isotsiologiya, tibbiyot, falsafa kabi fanlarning yaqinlashuvi ro'y bergan.

XIX asr ijtimoiy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari esa quyidagilardan iborat bo'lgan:

- ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- ta'lim sohasidagi ijtimoiy pedagogik faoliyat;
- xayriya va o'quv-tarbiya muassasalarining tuzilishi bo'yicha ijtimoiy pedagogik faoliyat;
- ijtimoiy pedagogikaning harakat doirasining kengayishi;

Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining barcha yo'nalishlarini asosiy vazifa bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish birlashtiradi. Aniqrog'i, ijtimoiy pedagogika g'oyasi, nazariyasi va amaliyotida birinchi o'ringa umuminsoniy qadriyatlar chiqadi. Ijtimoiy pedagogikani rivojlantirishning bu boqichida tarbiya va ta'limning uzviy bog'liqligi masalasi ilgari surilgan.

Bu borada ingliz faylasufi va pedagogi **Robert Ouening** ijtimoiy pedagogik faoliyati bir qancha qiziqarli va sermaxsul tajribalardan iborat. Uning tashabbusi bilan Nyu-Lenarkda tashkil etilgan "Inson karakterini tuzishni yangi instituti" ishchilarning turmush darajasini yaxshilash maqsadida ta'limni amaliyot, ishlab chiqarish bilan bog'lab olib borishni amalga oshirdi. Bundan tashqari jahonda ilk marta didaktik o'yinlar o'tkaziladigan, bolalarning jismoniy rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tarbiya muassasalari u tomonidan yaratilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogika va ommaviy tarbiya tizimiga buyurtmalar berila boshlangan. Buyurtmalarda yoshlarni tarbiyalash, shuningdek ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini buzuvchi shaxslarni qayta tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish o'z ifodasini topgan. Buyurtmaning ortishini keltirib chiqargan sabab Yevropa va Amerika mintaqalarining ijtimoiy madaniy jarayonlari bilan ham bog'liqdir. Zero, qishloq axolisining shaharga ko'chib o'tishlari, g'ayri axloqiy xulq-atvor, jinoyatchilik, daydilikning ko'payishiga olib kelgan.

Shu bilan birga Yevropada milliy davlatchilikning shakllanishi va Amerikada millatning yuzaga kelishi barcha ijtimoiy qatlamlarda muayyan g'oya va qadriyatlarining madaniylashuvini talab qilardi. Bu esa masalani yechish vositalarini topishni taqoz etardi. XIX asr oxirida mustaqil fanga aylangan ijtimoiy pedagogika rivojiga aynan shu omil vosita bo'ldi. Nemis pedagogi Fridrix Disterveg tomonidan XX asrda ijtimoiy pedagogika atamasi fanga kiritildi.

Shunday qilib, shu davrdan e'tiboran ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida rivojlanishining uchinchi bosqichi boshlanadi. XX asr inson sivilizatsiya tarixiga ilmiy-texnikaviy inqiloblar asri sifatida nom qoldirganligi tarixdan ma'lum. Fan ishlab chiqarish ob'ektidan iqtisodiy va madaniy sohaning yetakchi omiliga aylangan. Ilmiy inqiloblar o'z navbatida ijtimoiy pedagogikaning ham keyingi rivojiga ta'sirini ko'rsatdi. Uning boshqa fanlar-psixologiya, fiziologiya, anatomiya, tarix, sotsiologiya va boshqalar bilan yaqinlashuvi ro'y berdi. Eng asosiysi-XX asrda insonning muammolari, uning tarbiyasi va ta'limi uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratish zamonning eng global muammosiga aylandi. Mazkur muammoni yechimini topilishida Yevropalik quyidagi pedagoglarning ta'limotlari ahamiyatlidir.

G.Kirshenshteynning (1854-1932 y. Germaniya) pedagogik nazariyasi maktablarni bolalarning faol harakatdagi ehtiyojlarini amalga oshirishga, ularda ijodkorlikni o'stirishga qaratilgan islox qilishga doir g'oyani o'rtaga tashlaydi. Uning ta'kidlashicha pedagogik tizimining asosiy tamoyillari-bolalarni jamiyatda har tomonlama tayyorlash uchun mehnat maktablarini yaratish, hamkorlik malakalarini rivojlantirish, davlat manfaatiga xizmat qiluvchi bolalarning fuqarolik tarbiyasidir.

Jon Dyui (1859-1952 y AQSh) pragmatik pedagogika asoschisi hisoblanadi. Bu pedagogning xizmati shundaki, u maktab bilan hayotning aloqasi, ta'limning individuallashuvi kabi ijtimoiy psixologik g'oyalarga murojaat qilgan holda ta'lim tarbiya ishini amalga oshirish zarurligini ilgari surgan.

Vilgelm Lay (1862-1926 y. Germaniya) "Harakatlar pedagogikasi"ni yaratdi. U inson faoliyati va mavjudligining fiziologik va psixologik mexanizmlarini o'zida mujassamlashtiruvchi biologik reaksiya tamoyiliga tayangan. U tarbiyaning biologik tomonini-tug'ma reflekslar, sezgi, reaksiyalar, ularning bolalar o'yinlarida paydo bo'lishini va ijtimoiy tarbiyachining reaksiyalariga ta'sirini ko'rsatgan.

Hozirgacha turli davlat olimlari o'rtasida ijtimoiy pedagogikaning boshqa pedagogik fanlari orasidagi o'rni borasida –bu mustaqil fan bo'la oladimi yoki faqatgina yosh guruhlarini o'rganish bilan cheklanadigan pedagogikaning mustaqil bir sohasi bo'lib qolaveradimi, degan masalada bahs-munozara davom etmoqda.

Bu bahslar, yangi fan tushunchasining shakllanmaganligi ijtimoiy pedagogika mohiyatini inkor etuvchi ba'zi pedagoglar nazariyalarida paydo bo'lgan. Masalan G.Noll va G.Boymer (20-30 y) ijtimoiy pedagogikani bolalarga yordam berish va voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining profilaktikasi deb tushunishgan.

Ijtimoiy pedagogikaning mohiyatini nemis olimi **Paul Natori** (XX asrning 20- yillari) umuman boshqacha ta'riflangan. U ijtimoiy pedagog jamiyatning tarbiyaviy kuchlarining yaqinlashtirish muammosini halqning madaniy va axloqiy darajasini ko'tarish maqsadida tadqiq etadi deb hisoblagan. XX asrning 60-yillarida ijtimoiy pedagogika huquqbuzarlik sodir etgan bolalarga yordam berish, bolalar uyida tarbiya ishlari o'tkazish maqsadidagi ijtimoiy tarbiya asosi sifatida e'tirof etila boshladi. Ijtimoiy pedagogika pedagogikani rivojlanishi bilan birga chet ellarda ijtimoiy pedagogika sohasidagi mutaxassislarining kasbga oid faoliyati ham rivojlandi. Xususan, XX asrning 70-yillarida Germaniyada oliy ma'lumotli pedagoglar tayyorlana boshlandi.

XX asrning 50-yillariga kelib ijtimoiy pedagogika muammolarining global darajaga yetganiga BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 20.11.1959 yil va 20.11.1989 yilda “Bola huquqlari deklaratsiyasi”ning qabul qilinganligi guvohlik beradi. Unda alohida e’tibor yetimlarning ijtimoiy himoyasiga, ko‘p bolali oilalar, kam ta’minlangan oilalar bolalariga ijtimoiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan.

Bizning respublikamizda ijtimoiy pedagogika an’ana va tamoyillarini tiklash va uni rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Buni ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha ijtimoiy markazlarning tashkil etilganligidan ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Nazorat savollari:

1. Xorijda ijtimoiy pedagogika taraqqiyotining asosiy bosqichlarini sanab o‘ting?
2. Ikkinchi bosqichning qisqa ta’rifini bering?
3. “Ijtimoiy pedagogika” atamasi kim tomonidan va qachon fanga kiritilgan?
4. Nima sababdan XX asrda ijtimoiy pedagogika fani va faoliyatiga ijtimoiy talab kuchaydi?
5. XX asr ijtimoiy pedagogika vakillarining qarashlarini ochib bering?

Mavzu: O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogika fani.

Reja:

1. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.
2. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishidagi shart-sharoitlar.

Tayanch tushunchalar: diniy, falsafiy, adabiy, qomusiy, ma’rifatparvar, demokratik, milliy pedagogika, halq pedagogikasi, islom ta’limoti, urf-odat, etnos, mentalitet, mahalla.

“Ijtimoiy pedagogika” fan sifatida respublikamizda mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng o‘qitila boshlangan bo‘lsa-da, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat - ijtimoiy himoya ko‘rinishidagi qadimiy ildizlariga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go‘ro‘g‘li) manbalarda insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etishini ko‘ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma’naviy, axloqiy qadriyatlarni olib keldi va ular mintaqada oila va jamiyat tarbiyasi tizimiga ta’sir ko‘rsatdi.

Ijtimoiy pedagogik g‘oyalar va nazariyalarning shakllanishida Sharq uyg‘onishi davri olimlarining asarlari beqiyos o‘ringa ega. Ular faoliyatining mohiyati shuki, avval mavjud bo‘lgan o‘sha davrni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asoslangan tizimi asosida to‘planganligidadir. Yetuk olimlarning faoliyat karakteri-ilm bilan mashg‘ul bo‘lish ijtimoiy pedagogik qarashlarning mazmuniga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Buni qomusiy olimlarimizning faoliyatlaridan yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Buyuk olim **Al-Xorazmiy** (783-850 y)ning asarlari yorqin didaktik harakterga egadir. U savol-javob metodi orqali bilimlar qo‘lga kiritilishini, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kirishini, jamiyatning faol a’zosiga aylanishini ta’kidlagan.

Buyuk qomusiy olim **Abu Rayxon Beruniy** (973-1050 y) ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan ilmiy usullarni ishlab chiqqan. U, shuningdek ta’lim tamoyillarini (ilmiylik, ko‘rgazmalilik, hayot bilan bog‘lanishlik kabilar) ham tasniflagan.

Buyuq qomusiy olim **Abu Ali ibn Sino** (980-1037 y) o‘z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan. Uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Ibn Sinoning fikricha, bolalarda ijtimoiylashtirish ko‘nikmalari jamoa bo‘lib o‘qitish shaklida yaxshi shakllanadi. Buning uchun quyidagilarga asoslanish lozim:

- ta’lim oluvchilar, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida tajriba, bilim, ma’naviy va axloqiy qadriyatlar almashinuvini tashkil qilish;
- musobaqalashuv elementidan foydalanish;
- o‘quvchining ijtimoiy axloqiy xususiyatlarini-muomala, o‘zaro tushunish, o‘zaro yordam, do‘stlik hissini rivojlantirish.

Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganligi, ularning hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta'lim maqsadini sharhlashlarida o'z ifodasini topgan. Shaxsning jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishini ta'minlab beruvchi eng muhim xususiyatlar deb, ular mehribonlik, yaqinlarga yordam, g'urur, vijdon, yaxshi niyatlilik, sabrni bilishgan. O'quvchilarning har tomonlama intellektual va mehnat tayyorgarliklariga katta e'tibor qaratib, Forobiy va ibn Sino yoshlarning jamiyatga "kirish"larining eng muhim omillari sifatida, faollik, mustaqil tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik, ijodiy qobiliyatni hisoblashgan.

Shunday qilib, o'rta asr olimlari ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganlikga ega katta pedagogik meros qoldirganlar. Ularning ilmiy pedagogik asarlari zamonaviy ijtimoiy pedagogika ilmining rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi.

XI-XII asr Markaziy Osiyo ma'rifatparvar olimlari turli fanlar, shu jumladan pedagogikaning rivojiga katta hissa qo'shishdi. Yusuf Xos Xojib, Burxoniddin Zarnujiy va Ahmad Yugnakiylar bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topib olishi uchun bilimning, ota-onaning, oilaning o'rniga e'tibor qaratishgan.

Tarbiyaning ijtimoiy karakteri haqidagi g'oyalar **Alisher Navoiy**ning she'riy merosida nihoyatda aniq o'z ifodasini topgan. Shoirning pedagogik qarashlari insonparvar karakterga ega.

XVIII-XIX asrning ma'rifatparvar shoirlari Munis Xorazmiy (1778-1829), Muhammad Ogahiy (1809-1874), Ubaydulla Zavqiy (1853-1921) birinchi o'ringa keng ommaning ma'rifatli kilish va ta'lim masalalarini qo'yishgan. Ta'limning asosiy vazifasini ular axloqiy mukammallashvida va mehnatga o'rgatishda deb bilishgan.

Ma'rifatparvarlik va demokratik g'oyalar XIX asrning oxiri- XX asr boshlarida o'z cho'qqisiga ko'tarildi.

O'zbekistondagi demokratik pedagogik g'oyaning taraqqiyparvar yo'nalishining yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniydir (1878-1934) Avloniyning o'zbek pedagogikasiga qo'shgan hissasi shuki, u ilk marta tarbiya oldida ijtimoiy vazifalarni qo'ya olgan. Bu shoir va pedagogning katta jasorati o'z asarlarida shaxsning rivojlanishida tarbiyaning hal qiluvchi rolining e'tirof etilishi bo'ldi. Uning fikricha, tarbiya ijtimoiy maqsadlarni ko'zlashi kerak. Avloniy "yangi kishi" tushunchasini shaxsiy emas, balki ijtimoiy manfaatlardan kelib chiquvchi jamoat arbobi sifatida ta'riflaydi. Tarbiyaning muvaffaqiyati Avloniy fikricha oila, ota-onalar va pedagoglarning shaxsiy namunaviy roli bilan belgilanadi. Eng muhim ijtimoiy xususiyat deb u mustaqillik, tashabbuskorlik, amaliy tajribani bilgan.

O'tmish tajribasini o'rganish zamonaviy pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. O'sib kelayotgan avlodni hayotga tayyorlashning ko'p asrlik tajribasi yordamida yoshlarning zamonaviy bozor-iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatga tayyorlash mumkinmi; - degan masalada qizg'in bahs munozara xanuz davom etib kelmoqda.

Xech ikkilanmasdan shuni aytish mumkinki, moziy tajribasida, aniqrog'i halq pedagogikasida tarbiya va ta'lim jarayonlariga qo'llash mumkin bo'lgan meros mavjud. Boshqacha qilib aytganda, halq pedagogikasi shaxsga o'z davrida ijtimoiy xususiyatlarni paydo qilish uchun lozim bo'lgan pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar, ta'lim-tarbiya berish, yo'llari, vositalarining majmuasi hisoblanadi.

Halq, xususan milliy pedagogikaning tengsiz qadriyati shundaki u birinchidan o'zida asrlar davomida shakllangan pedagogik haqiqatlarga ega; ikkinchidan esa u hayotiy, amaliy yo'nalishdaligidir.

Halq pedagogikasida hayotiy (maishiy, mehnat, axloqiy) va pedagogik ma'lumotlar, kuzatuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular yoshlarda ijtimoiy axloq va ijtimoiy moslashuv malakalarining shakllanishi vositasi, omili hisoblanadi.

Halq pedagogikasining qoidalari halq ijodi namunalari-maqol, ertak, ashula, doston, rivoyatlarda o'zining ifodasini topgan. Aynan shularda halq asrlar mobaynida o'z ijtimoiy tajribasini umumlashtirgan. Ular hikmatlar shaklida pand-o'git mazmuniga ega bo'lib halqning ijtimoiy hayotga bo'lgan real (hayotiy) qarashlarini ifodalaydi.

Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishida islom ta'limoti, ma'naviyatining tutgan o'rni beqiyosdir. Zero, islom ta'limotining asl mazmun, mohiyatini inson komilligi, uning g'oyasini esa insoniylik, ezgulik, yaxshilik, halollik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, sadoqatlilik tashkil etadi.

Darhaqiqat, islom din bo'lib, uning mazmuni yagona xudo-allohxga iymon keltirishdir. Uning asosi Qur'oni Karim bo'lib, u asosan ijtimoiy-xuquqiy qoidalar yig'indisi hisoblanadi.

Buni ijtimoiy xuquqiy ezguliklarga ega bo'lgan shariatning quyidagi tamoyillaridan ham yaqqol ko'rish mumkin:

- jamiyatning barcha a'zolari, irqi, tili va diniy mansubligidan qat'iy nazar tengligi;
 - jamiyat barcha a'zolarining teng mas'uliyatga egaliklari (chunki ular bitta manbadan kelib chiqishadi);
 - inson hayoti va erkinligining tengligi;
 - oila jamiyatning asosidir: jamiyat oilani o'z himoyasiga oladi va unga g'amxurlik qiladi;
 - boshqaruvchi va boshqariluvchilarning tengligi;
 - yagona Allox barcha narsaning egasi va u tomondan yaratilganlar, uning barcha yaratishlariga xadyasidir. Har bir inson bu hadyadan o'z bo'lagini olishga haqli;
 - halq va jamiyatga tegishli barcha siyosiy, ijtimoiy va boshqa masalalar halq bilan maslahatlashib hal qilinishi lozim;
 - o'zining dunyoviy ishlari uchun har kishi jamiyat oldida javob beradi.
- Inson ma'naviy hayotga tegishli ishlari uchun esa faqatgina Alloh oldida hisob beradi;
- jamiyatning bir bo'lagi bo'lmish inson, ma'n etilganlarni sodir etgan shaxsga qarshi da'vo qilishi mumkin va hokozo.

Islom xadislarda bayon etilgan eng muhim inson xuquqlari sifatida quyidagilarni kafolatlaydi:

- yashash xuquqi;
- erkinlik xuquqi;
- tenglik xuquqi;
- adolat xuquqi.

Ijtimoiy pedagogik fikrlar rivojida Qur'oni Karimdan keyingi turuvchi muqaddas manbalar Xurshiddur. Ularda payg'ambarning hayoti va faoliyatidan turli hikoyalar va uning ahloqiy pandlari mavjud. Shu bilan birga xadislarda islom asoslarining sharhlari: mexribonlik, muqaddas dargoh, tozalik, halol-harom tushunchalari va yaxshilik, yomonlik, axloqiylik kabi o'gitlar o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, davlat va jamiyat rivojining o'ziga xos yo'lini tanlashi, milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, saqlab qolish imkonini beradi va hayotning barcha jabhalarida milliy xususiyatlarni inobatga olish vazifasini qo'yadi.

O'zbek halqiga o'ziga xos etnik muhit xosdir. Bunday muhitda bolalar yoshligidan o'z ona (milliy) tillarining va unda aksini topgan ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ashulalar, ideallarning ta'siri doirasida bo'ladilar. Bolalar asta-sekin milliy an'analar, urf-odatlarining aniq me'yorlariga ko'nikishadi. O'quvchilarda milliy tarixni, adabiyotni o'rganish va ona tillarida turli ma'lumotlar olish orqali o'smirlik yoshida o'z mansubligini va etnik umummiylikni anglash ro'y beradi.

Etnomadaniy sharoitlarda insonning ijtimoiylashuvida yoki etnos mentalitet (bu tushuncha XX asr boshida fransuz olimi L.Levi Bryul tomonidan fanga kiritilgan) ham ijobiy ta'sir ko'rsatiladi. Etnos-bu tarixan bir hududda shakllangan, til, madaniyat, ruhiyatning umumiy, nisbatan barqaror xususiyatlariga ega bo'lib, boshqa halqlardan, tuzilmalardan o'z-o'zini anglashi bilan ajralib turuvchi odamlar majmuasidir.

Mentallik insonning olam, o'zining bu olamda tutgan o'rni haqidagi tasavvurlari asosida yetgan obrazlar tizimidir, ya'ni mentallik etnik guruhga u yoki bu davrga xos bo'lgan o'ziga yarasha dunyoqarashdir.


"Mentalitet" kategoriyasi gumanitar fanlarda an'analar va madaniyat orqali aniqlab beriluvchi ommaviy dunyoqarashning tarkiblarini ifodalash uchun ishlatilmoqda.

Mentalitet-bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning dunyoni muayyan obrazda qabul qilish, his qilish va unda tafakkur yuritishini ichiga oluvchi individual va jamoa ongining darajasidir. Mentalitet shu halqning uzoq tarixiy rivojlanishi natijasida shakllanadi va milliy harakter, iqtisodiy va ijtimoiy xulq atvorning milliy modelini belgilab beradi.

Mentalitet shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida muhim o‘rin tutadi, chunki u ijtimoiy axborot tashuvchisi hisoblanadi. Ijtimoiy axborot bu holatda 3 asosiy guruhda bo‘ladi:

- ishlab chiqarish quroli va mehnatning jamoat natijalari;
- ob‘ektiv ijtimoiy munosabatlar;
- til.

Mentalitet ijtimoiy axborotning o‘ziga xos qismi sifatida o‘zining uzatish kanallariga ega. Ular orasida eng asosiylari tabiiy muhit, mumtoz, va boshqa keng tarqalgan matnlar, til strukturalari, kundalik yumushlar hisoblanadi. Hozirgi kunda fanda mentalitet tushunchasi tor va keng ma‘nolarda tushuniladi.



Boshqacha aytganda mahalla ijtimoiylashuvning ta‘sirli mexanizmi hisoblanadi. Chunki unda:

- har bir inson amal qilishi kerak bo‘lgan muayyan axloqiy qonunlar ishlab turadi;
- muomala bir qator axloqiy tamoyillarga asoslanadi;

-hokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna kuchi, kattalarga hurmat, bolalar haqida g'amxo'rlik;

-axloq va jamoatchilikning tarbiyasi amaliy faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi;

-ommaviy ong qadriyatlari mahalladan oila va shaxsga yetkaziladi;

-alohida shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda bo'ladi.

Mahallaning ijtimoiy o'rni shunda namoyon bo'ladiki, u doimo jiddiy ijtimoiy o'zgarishlarga o'z munosabatini bildiradi va oliy insoniy va axloqiy tamoyillarga tayanadi.

Mahalla hozirda zamonaviy jamiyat hayotining ijtimoiy tizimida o'z o'rnini topgan. Milliy va etnik an'analarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston siyosati bu an'anaviy institutning yanada faol faoliyat yuritishiga yangi zaminlar yaratdi.

Nazorat savollari:

1. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika fanining shakllanishidagi ildizlarni nimalar tashkil etadi?

2. O'rta Osiyolik qomusiy olimlarning ijtimoiy pedagogik g'oyalari qanday baholaysiz?

3. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishidagi shart sharoitlarni tavsiflang?

4. Islom ta'limoti va ma'naviyatining ijtimoiy ahamiyati nimalarda ifodalanadi?

5. Shaxsning ijtimoiylashuvda "mentalitet"ning o'rnini qanday baholaysiz?

Mavzu: Ijtimoiylashuv - ijtimoiy pedagogikaning asosiy muammosi

Reja:

1. Ijtimoiylashuv tushunchasi va jarayoni.

2. Ijtimoiylashuv mexanizmlari.

3. Ijtimoiylashuv omillari.

4. Ijtimoiylashuv vositalari va agentlari.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiylashuv, omil, mexanizm, vosita, agent, sub'ektiv, ob'ektiv, jarayon, identifikatsiya, intellektuallashuv, megaomil, mikroomil, mezoomil, biologik, ijtimoiy muhit.

"Ijtimoiylashuv" so'zi dastlab siyosiy-iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy-iqtisodiyotda yer, ishlab chiqarish vositalarining umumiy lashuvi ma'nosini anglatgan.

Uning zamonaviy ma'nosi-" ijtimoiy tabiat yoki individ harakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir.

XX asr o'rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini uning butun umri mobaynida o'rganuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli konsepsiyalarining tahlili uni shartli ravishda ikki asosiy yondoshuvga ajratish imkonini beradi:

-sub'ektiv-ob'ektiv. Unda insonga jamiyat ta'sirining passiv iste'molchisi sifatida qaraladi.

-sub'ektiv-sub'ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o'rni, uning hayotiy holatlarga ta'sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko'proq mos tushadi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o'zlashtirish jarayonidagi rivojlanishi va o'zgarishi bilan aniqlanadi.

Bolaning ijtimoiylashuvi xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning barcha narsani egallashga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Shu bilan birga unda ikkinchi bir, ya'ni sub'ektiv ehtiyoj xissi ham mavjudki, bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Bu hodisa shunday namoyon bo'ladiki, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlariga ega bo'ladi. Shunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba, madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi

zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashtirish jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvdir.

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashtirish insonning yoshlik chog'ida paydo bo'ladigan ob'ektiv ehtiyojlari bilan bog'liq jamiyatdagi o'z-o'zini anglashdir. Bu ehtiyoj:

- o'z qarashlariga ega bo'lish;
- o'ziga xosliklariga ega bo'lish;
- unga tegishli bo'lgan masalalarni hal qilish, uning o'z darajasini aniqlab olishiga halaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish xohishi sifatida namoyon bo'ladi.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuallashtirish jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi. Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashtirish o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon 3 asosiy sohada amalga oshadi:

- faoliyat-turlarining kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish;

- muomala-muomala doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish;

- anglash-shaxsiy «men» obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o'z ijtimoiy mansubligi va o'rnini anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish.

Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan ommaviy vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: go'dakni emizish va g'amxo'rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari, insonni o'rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari-muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug'ullanish kiradi.

Ma'lumki, har bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruhda ijobiy va salbiy (man etish, ruxsat berish, majburlash) chora-tadbirlarini ishlab chiqiladi. Bu choralar yordamida inson xulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me'yoriy qoidalarga moslashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'yin, o'qish, ijod, sport)dir. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan.

- go'daklik davri-bevosita hissiy-ruhiy;
- go'daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat;
- maktabgacha davr-rolli o'yinlar;
- ilk maktab davri-o'quv faoliyati;
- o'smirlik davri-kasb ta'limi faoliyati;
- o'spirinlik davri-shaxsiy muloqot faoliyati.

Insonning voyaga yetishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo'lgan kishilar muhim o'rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo'ladi. Bolalar va o'smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo'shnilar agent bo'lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib agentlar qatoriga turmush o'rtog'i, hamkasblari ham qo'shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o'rinlariga, inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga qarab agentlar ham farqlanadi:

Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar, agentlar bilan hamkorlikda va bir qator mexanizmlar asosida amalga oshadi.

I.P.Podlasiyning tasnifi bo'yicha bu mexanizmlar:

- **botirish mexanizmi:** uning mazmuni muayyan g'oya, fikr, xohish, istaklarni ondan chiqarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashqi va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm ham

o'z o'rnida ixtiyoriy va g'ayri ixtiyoriyga bo'linadi. G'ayri ixtiyoriy mexanizm-unutishdir. Ixtiyoriy bostirish mexanizmi esa iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashqi bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarqalgan usulidir;

- **ajratish mexanizmi:** bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o'zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bog'liq. Ajratish mexanizmi odatda nizolarni hal qilishda kuzatiladi.

- **o'z-o'zini cheklash mexanizmi:** bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do'stlarinikidan ko'ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o'z-o'ziga ishonchi pasayadi. Bu o'z menini cheklab qo'yish, qiyinchiliklar oldida ojiz qolishdir. Ba'zi hollarda o'z-o'zini cheklash mexanizmini qo'llashni oqlasa bo'ladi. Chunki, bu holatda moslashuv sodir bo'lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o'z-o'zini cheklash, o'z-o'ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o'z salohiyatini bilmay turib tarbiyalanuvchi ilk muvaffaqiyatsizlikdan so'ng boshlagan ishini tashlab qo'yadi, oqimda suza boshlaydi;

- o'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash *loyihalash mexanizmining* mohiyatini tashkil qiladi. O'ziga, boshqalarga qarshi qaratilgan salbiy hissiyotlar bilan inson o'ziga bo'lgan hurmatni saqlab qoladi. Shubhali inson hammadan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin hisoblaydi;

- ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmlaridan biri bu-*identifikatsiyadir*. Identifikatsiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o'zini o'rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikatsiya ob'ekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo'lishi mumkin. Identifikatsiyaning to'liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud.

- identifikatsiya mexanizmi *introeksiya* mexanizmi bilan juda bog'liq. Bunda boshqalarning xislatlari o'zgarmagan holda o'zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa ham uning natijalarini anglab olish qiyin emas;

- *empatiya mexanizmi*, ya'ni boshqa odamning hissiy holatiga hamdard bo'lish. Shaxsning muammo, qiyinchiliklarini yengishga yordam berish hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega;

- qiyin holatlarda *intellektuallashuv* mexanizmi ishga tushadi. Katta yoshdagi tarbiyalanuvchi abstrakt fikrlay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo'lini o'zi uchun emas, go'yoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi hayotiy muhim muammolarga (kasallik, boshqa maktabga o'tish, institutga kirish) duchor bo'lganda namoyon bo'ladi.

- *ratsianallashuv* mexanizmida tarbiyalanuvchi o'z xatti-harakatlarining mantiqiy xulosasini chiqaradi. Yosh ratsianalizatorlar odatda maqsadning diskreditatsiyasini qo'llashadi.

- fikr, xissiyot, harakatlarni susaytirish uchun *harakatlarni bekor qilish* mexanizmi qo'llaniladi. Tarbiyalanuvchi kechirim so'rganida, uning harakatlari kechirilishi va sof vijdon bilan harakat qila boshlashiga ishonadi. Ko'p shaxslar shu tarzda komillikka erishishadi.¹

Tadqiqotchi I.V.Mudrikning fikricha psixologik va ijtimoiy psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kiritisa bo'ladi:

- *imprinting* (xotirada saqlab qolish)-insonga ta'sir qiladigan hayotiy muhim ob'ektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm odatda go'daklik davrida ko'p qo'llaniladi.

- *eksiztensial* bosim mexanizmi-tilni o'zlashtirish va munosabatga kirishganda kerak bo'ladigan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga anglamagan holda ega bo'lish.

- *taqlid*-biror bir namunaga o'xshashga harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to'plashining yo'llaridan biridir.

- *refleksiya mexanizmi*-ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro' e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko'rib chiqadi yoki inkor etadi. Refleksiya insonning turli "men" obrazlari orasidagi real va hayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro'y beradi.

Bundan tashqari ijtimoiylashuvning ijtimoiy pedagogik mexanizmlariga quyidagilarni ham kiritisa bo'ladi: ijtimoiylashuvning *an'anaviy mexanizmi* inson tomonidan oila, atrof-muhit, qo'shnilar,

¹Qarang: Podalsiy I.P. Pedagogika: 100 voprosov – 100 otvetov. Moskva, «Vlados», 2001, 254-256 betlar

o'rtog'lariga xos xulq, qarash stereotiplarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Bu o'zlashtirish ongsiz holatda amalga oshib taasurotlar yordamida sodir bo'ladi;

- *institutsional mexanizm* insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlari bilan o'zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to'plashi mumkin.¹

Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Ijtimoiylashuvning bir necha omillari bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin.

Megaomillar (mega-eng katta)-kosmos, planeta, dunyo, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy siyosiy, ekologik, planetar jarayonlarni ham kiritsa bo'ladi. Ular boshqa omil guruhlari orqali yer yuzasi barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Makroomillar (makro-katta)-davlat, halq, jamiyat. Bu omillar muayyan hududda yashovchi aholi ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi.

Mezoomillar (mezo-o'rta)-hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, auditoriya, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko'ra ajratilgan guruhlarining ijtimoiylashuvi shart-sharoitlaridir.

Ijtimoiylashuvga **mezoomillar** mikroomillar orqali ta'sir qiladi. Mikro omillarga muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillar-oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit sotsium yoki mikrosotsium deyiladi.

Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari ichki biologik omillar ham mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o'rganishning iloji yo'q.

¹Qarang: A.V. Mudrik. Sotsialnaya pedagogika. Moskva, 2003

Zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillar ajratib ko'rsatiladi.

Biologik omillar. Biologik (irsiyat) insonni inson qiluvchi umumiy jihatlarini aniqlaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch, teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ulayotgan bolalar soni ko'paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shuning uchun ularga o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug'ullanishadi. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

Ijtimoiy omillar. Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'ektga aylanishi, uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo'ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan qadriyat, ijtimoiy me'yor, xulq-atvor namunasi orqali amalga oshadi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki, aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ulgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuvinigina yetarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan karakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham inson oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rnini bilan belgilanadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "men"i obrazini

shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

So'nggi yillarda pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv hamda tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Ba'zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o'rganishadi. Ayrim olimlar esa ijtimoiylashuv deganda fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To'rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. To'g'ri tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligi hammaga malum.

Ijtimoiy omillarni insonga ta'sir ko'rsatishining tarkibiy qismi bo'lgan tarbiya o'z xususiyatlariga ega.


Jumladan tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi. Boshqacha qilib aytganda, bola qanchalik kichik bo'lsa, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi.

Biroq boshqa bir jarayon-o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o'z shaxsini mukammallashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi.

Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayoni yuz beradi

Shaxsning shakllanish va ijtimoiylashuv jarayoni quyidagi sxemada ifodalash mumkin:

II chizma



Bolalarning ijtimoiylashuvi uning muhitidagi o'zgarishlar bilan qiyinlashib ketishi mumkin. Bolaning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishi muhitning salbiy ta'siri o'to'g'ri yo'nalishda ketib qolishi mumkin. Buning natijasida bola me'yoriy ijtimoiy talablardan chetda qolib ketib, maxsus yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida tarbiyachi o'zining ijtimoiy moslashuvigaga qaratilgan faol ko'nikishi yoki salbiy omillarning ta'sirini hisobga olishi zarur.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarga ega. Tarbiyaning umumiy vazifalari quyidagilar:

-jamiyat a'zolarining bir mamlakatda yashash uchun zarur bo'lgan qadriyatlar yaratish;

-jamiyatda faoliyat yuritish va o'zlarining qadriyatlarini o'zlashtirish;

-ijtimoiy hayot barqarorligini ta'minlash;

-jamiyat a'zolarining ijtimoiy qadriyatlarini o'zlashtirish;

-o'zgaruvchan ijtimoiy holatlarga jamiyat a'zolarini ko'niktirish;

-jamiyat a'zolarining intilishlari, maqsadlarining birlashishini va ijtimoiy, kasbiy, etnokonfessial guruhlar manfaatlarining uyg'unlashuvini ta'minlash.

Tarbiya tamoyillari-tarbiyani amalga oshirish qoidalari bo'lib, ular asosida nazariyalar ishlab chiqiladi va tarbiyaning metod, shakl va vositalari amalga oshiriladi.

Tarbiyaning insonparvarlashuvi yo'naltirilganligi tamoyili.

Ijtimoiy pedagogikada insonparvarlashuv tamoyili pedagogning tarbiyalanuvchiga o'z rivojlanishining mas'ul va mustaqil sub'ektiga nisbatan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish bolalar, o'smirlar, yoshlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi oqibatida:

-aynan tarbiya ijtimoiylashuv obekti bo'lishi inson qay darajada g'ayri ijtimoiy me'yoriy qadriyatlarni emas, balki ijobiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishni aniqlaydi;

-tarbiya inson o'zini ijtimoiylashuv sub'ekti sifatida his qilishi, uning sub'ektivligini namoyon bo'lishi va taraqqiy etishi uchun sharoitlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi;

-tarbiya inson uchun jamiyatga ko'nikishi darajasini ishlab chiqishiga sharoitlar yaratadi.

-tarbiya insonni muayyan yosh bosqichlarida xavflar bilan to'qnash kelishiga yo'l qo'ymasligi, ya'ni insonning ijtimoiylashuv qurboniga aylanmasligi ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amaliyotda amalga oshirish tarbiyalanuvchida refleksiya va o'z-o'zini tartibga solishni rivojlantirishga, uning olam bilan munosabatlarining shakllanishiga, jamiyatda demokratik va gumanistik munosabatlarning tashuvchisi bo'lgan insonning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaning madaniylashuvi tamoyili

Tarbiyaning madaniylashuvi zaruriyati g'oyasi ingliz pedagogi Jon Lok (XVIII asr), fransuz mutafakkiri Klod Gelvetsiy (XVIII asr) va shved sar pedagogi Iogann Pestalotssi asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

XIX asrda nemis pedagogi Fridrix Disterverg tomonidan ta'rifi berilgan tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyilining zamonaviy tarifi tarbiya madaniyatining umuminsoniy qadriyatlariga asoslanishi va u yoki bu milliy madaniyatlarning qadriyatlari va me'yorlariga mos bunyod etilishini ko'zda tutadi.

Tarbiyaning variativligi tamoyili. Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy tarbiyaning variativligi shaxs ehtiyojlarining xilma-xilligi bilan aniqlanadi.

Tarbiya variativligi tamoyili insonning mintaqaviy, munitsipial va lokal darajada umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, etnik xususiyatlar, shuningdek mintaqaviy munitsipial va lokal sharoitlarni inobatga olib, tarbiya muassasalarida insoniy, yosh, differensial va individual yondashuvlar asosida manaviy-qadriyat jihatidan tarbiyalashni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish uchun ishlab chiqilgan..

Ijtimoiy tarbiyaning variativligi tamoyilini amalga oshirish uchun quyidagilar zarurdir:

- shaxs manfaatlarini va ehtiyojlari, turli yosh, ijtimoiy-kasbiy, etnik qatlamlarning talablari, xududiy va mintaqaviy tashkilotlarning ehtiyojlarini qondirish uchun turli xildagi tarbiya tashkilotlarini tuzish;

- ijtimoiy tarbiyaning mintaqaviy va munitsipial tizimlarni tashkil qilish;

- mahalliy tarbiya tizimlarini tashkil qilish.

Ijtimoiy tarbiyaning variativlik tamoyilini amalga oshirish:

- insonning turli xildagi hayotiy va shaxsiy masalalarini yechishga, qobiliyatini shakllantirishga;

- inson tomonidan o'zining rivojlanish strategiyalari, hayotiy va kasbiy yo'llarini tanlashga imkoniyatlarini kengaytirish uchun sharoitlar yaratadi.

Ijtimoiy tarbiyaning jamoaviyligi tamoyili. Ijtimoiylashuvning mikroo'millarining tavsifi shuni ko'rsatadiki bolalar, o'smirlarning ijtimoiylashuvi tengdoshlari va kattalar (oila, qo'shnilar, mikrojamiyat, tarbiya tashkilotlari) bilan o'zaro munosabatlarida ro'y beradi. Ijtimoiy tarbiya nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi ijtimoiylashuvning bo'lagi sifatida bir tomondan jamoalarda ro'y beradi, boshqa tomondan esa bolalar, o'smirlarni jamoa hayotiga ob'ektiv zaruriyat sifatida olib kiradi.

Jamoa tarbiyaning eng muhim vositasi ekanligi haqidagi g'oya juda qadimda paydo bo'lgan va XIX asrdan boshlab pedagoglar tomonidan jadallik bilan uning nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

Jamoaviylik tamoyilining zamonaviy ta'rifiga ko'ra ijtimoiy tarbiya turli jamoalarda amalga oshirilib, insonga hayot tajribasi, umuman olganda esa jamiyatga ko'nikish tajribasini qo'lga kiritish imkonini beradi.

Tarbiyaning shaxs rivojlanishiga markazlashuvi tamoyili

Bu tamoyilga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning strategiya va maqsadi yosh avlod, o'smirlarni komil inson bo'lib yetishlariga yordam berishdir. Ijtimoiy tarbiya jarayoni, tarbiya muassasalari faqatgina shaxs rivojlanishining vositasi bo'lishlari mumkin.

Rivojlanishni inson tomonidan uch turdagi vazifalarni (tabiiy-madaniy, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik) hal qilish jarayoni deb qarashimiz mumkin. Shu vazifalarga ko'ra, tarbiya muassasalarida ijtimoiy tarbiyani markazlashtirish lozim bo'lgan shaxs rivojining jihatlarini aniqlashtirsa bo'ladi.

Tabiiy-madaniy vazifalarni hal qilish zaruriyati inson rivojining

-jismoniy (tabiiy);

-jinsiy (fiziologik) jihatdan rivojlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy - madaniy vazifalarni yechish zaruriyati esa, insonning:

-intellektual (aqliy);

-ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ijtimoiy tarbiya bu jihatlarining imkoniyati va o'rni turlicha, biroq u bu jihatlarining har birida u ijtimoiylashuv omillariga nisbatan qo'shimcha o'ringa ega. Bundan tashqari tarbiya muassasalarining turiga qarab ham imkoniyatlari turlicha bo'ladi.

Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat tamoyili:

Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat tamoyiliga ko'ra bolalar, o'spirinlar, o'smirlarning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishi tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi qadriyatlar (aqliy, ijtimoiy) almashuvi jarayonida amalga oshiriladi. Bular:

-dunyo madaniyatlari va aniq bir jamiyatda ishlab chiqilgan qadriyatlar;

- ijtimoiy tarbiya sub'ektlariga xos bo'lgan qadriyatlar;

-tarbiya tashkilotlarining muayyan a'zosiga xos bo'lgan qadriyatlar.

Tarbiyaning tugallanmasligi tamoyili.

Bu tamoyil ijtimoiylashuvning merosiylik harakteridan kelib chiqadi. Tarbiyaning tugallanmasligi tamoyili inson rivojlanishining har bir bosqichini individual va ijtimoiy qadriyat deb biladi. Bu tamoyilga ko'ra har bir bola, o'smir doimo tugallanmagan va aslida tugallanmaydigan bir narsa bo'ladi.

Tarbiyaning tugallanmasligi tamoyiliga ko'ra tarbiyani shunday tashkil qilish kerakki, har bir yosh bosqichida inson "qayta shakllanish" imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Nazorat savollar:

1. Ijtimoiylashuv nima? Bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi omillar qaysilar?
2. Bola rivojlanishiga muhitning ta'siri qanday?
3. Bola tarbiyasi va uning ijtimoiylashuvi orasidagi bog'liqlik nimada?
4. Ijtimoiy moslashuv nima?
5. Tarbiyaning ijtimoiy vazifalarini sanab bering.
6. Tarbiyaviy tamoyillarning mohiyati va mazmunini bayon etish?

Mavzu: Ijtimomiy pedagogikada me'yor va me'yordan og'ish masalasi.

Reja:

1. "Me'yor" va "Me'yordan chetga chiqish" (og'ish) tushunchalari.

2. Me'yordan chetga chiqishning turlari.

3. Me'yordan chetga chiqish (og'ish)ga doir qarashlar talqini.

Tayanch tushunchalar: me'yor, me'yordan chiqish, jismoniy, psixik, pedagogik va ijtimoiy chetga chiqishlar, ijtimoiy model

Tarixdan ma'lumki har qanday jamiyatda, u jamiyat qaysi rivojlanish bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar alohida e'tiborga muhtoj odamlar mavjuddir. Bular o'z jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida chetga chiqish, og'ishga moyil bo'lgan shaxslardir. Bunday kishilar bilan tegishli, jamiyat va davlatda ularga nisbatan alohida munosabat shakllangan.

Hozirda AQSh va Yevropa davlatlarida u yoki bu og‘ishlarga ega kishilarning jamiyatga integratsiyalashuvi tamoyili amalga oshirilmoqda. Unga ko‘ra, bu odamlar ham jamiyatning teng huquqli, biroq ba‘zi bir muammo yoki cheklangan imkoniyatlarga ega a‘zosi sifatida qaraladi.

Hozirda cheklangan imkoniyatli shaxslar soni butun dunyoda shu jumladan, O‘zbekistonda ham sezilarli darajada ekanligi e‘tiborni tortadi.

Tibbiyot, psixologiya, sotsiologiyada “me‘yor”ning o‘z ko‘rsatgichlari, o‘z me‘yorlari bo‘lib unga mos kelmaydigan jihatni-“og‘ish”, “chetga chiqish” deyiladi.

Ijtimoiy pedagogika uchun “me‘yor” va “me‘yordan og‘ish” tushunchalari nihoyatda ahamiyatlidir. Ular bola xulq-atvori va rivojlanish jarayonini harakterlash uchun qo‘llanadi.

Og‘ish ham ijobiy ham salbiy harakterga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, bola rivojlanishida aqliy qoloqlik ham, qobiliyatlilik ham me‘yordan og‘ish hisoblanadi. Xulq-atvordagi jinoyatchilik, giyohvandlik va boshqa salbiy og‘ishlar ham shaxsning ijtimoiy shakllanish jarayoniga, ham jamiyat rivojlanishiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Me‘yordan chetga chiqishni shartli ravishda 4 guruhga ajratish mumkin: jismoniy, ruhiy, pedagogik va sotsiologik.

Me‘yordan jismoniy og‘ish inson sog‘ligiga bog‘liq. Sog‘liqdagi og‘ish yoki irsiy omillar yoki biror-bir tashqi holatlar: og‘ir ekologik holat, ichimlik suvining qoniqarsiz sifati, oila hayoti darajasining pasayishi va boshqalar asosida yuzaga kelishi mumkin.

Sog‘ligida va rivojlanishida og‘ishga moyillarning ko‘p tasniflari mavjud. Umumjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 1980 yilda cheklangan imkoniyatlarning uch zvenosi shkalasining britanacha variantini qabul qilgan:

Bular:

-kasallik, xastalik-ruhiy yoki fiziologik funksiyalar, anatomik struktura elementlarini har qanday yo‘qotish;

-cheklangan imkoniyat-inson uchun me‘yor hisoblangan chegarada biron-bir faoliyatni bajarish qobiliyatini yoqotish yoki cheklab qo‘yish;

-nogironlik-yosh, jins yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqib insonning biron-bir faoliyatini bajarishni cheklovchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi cheklangan imkoniyat.

G‘arb davlatlarida “sog‘ligining cheklangan imkoniyatlariga ega shaxs” tushunchasi mavjud. Ularga ta‘lim standartlarini o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiluvchi jismoniy yoki ruhiy kamchiliklarga ega bolalar kiradi. Shuningdek, nuqson tushunchasi ham mavjud bo‘lib, uning 4 turi-ruhiy, jismoniy, murakkab va og‘ir turlari mavjud.

Jismoniy nuqsonlarga-inson organizmining faoliyat yurgizishga yoki rivojlanishidagi doimiy yoki vaqtinchalik kamchiliklar, shuningdek har qanday somatik yoki yuqumli xastaliklar kiradi.

Ruhiy nuqsonlarga-insonning ruhiy rivojlanishidagi doimiy yoki vaqtinchalik kamchilik. Bularga nutq buzilishi, miya faoliyati, shuningdek, aqliy rivojlanishning buzilishlari kiradi.

Murakkab nuqson belgilangan tartibda tasdiqlangan jismoniy va ruhiy kamchiliklarni o‘zida mujassam etadi.

Og‘ir nuqson- shunday nuqsonki, u mavjud bo‘lgan holatda davlat ta‘lim standartlariga mos ravishda ta‘lim olishning umuman iloji bo‘lmaydi.

Bola jismoniy rivojlanishidagi og‘ishlarga kasallik, ko‘rish, eshitish qobiliyatlarining buzilishlari kiradi. Me‘yordan ruhiy og‘ishlar bolaning aqliy rivojlanishi, uning ruhiy nuqsonlariga bog‘liqdir. Bu turdagi og‘ishlarga ruhiy rivojlanishning to‘xtab qolishi, bolalarning aqliy jihatdan ortda qolishi kiradi. Aqliy qoloqlik asab tizimining tug‘ma nuqsonlari yoki jarohat asosida paydo bo‘ladi. Bolalarda aqliy qoloqlik –engil, o‘rtacha va og‘ir darajada bo‘ladi.

Ruhiy og‘ishlarga turli darajadagi nutq buzilishlari ham kiradi. Ruhiy og‘ishlarning yana bir turi emotsional faoliyatining buzilishidir. Bu og‘ish turining eng og‘ir shakllari deb autizm-muloqotga ehtiyoj sezmaslik va suitsid (o‘z-o‘zini o‘ldirish)larni keltirsa bo‘ladi.

Bolalarning iqtidorliligi alohida og‘ish turi hisoblanadi. Bu biror-bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta‘minlab beruvchi qobiliyatlarning o‘ziga xos uyg‘unligidir. Iqtidorlilik darajasi nafaqat qobiliyatlarga qarab balki, faoliyat mahsullari harakteriga qarab ham belgilanadi.

Pedagogik og‘ishlar tushunchasi pedagogika va ijtimoiy pedagogikada hozircha kam qo‘llaniladigan tushunchadir. Vaholanki, pedagogik faoliyatda pedagogik maqsadlarni amalga oshirish, shaxs rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish uchun ta‘lim olayotganlar faoliyatini tartibga **solganidan** turli me‘yorlar qo‘llanmoqda. Bu ta‘lim darajasini belgilaydigan standartlarga, shuningdek o‘quvchi intilayotgan maqsadlarga tegishli. Bularga yana ta‘lim olishda yuqori natijalarni ta‘minlab beruvchi bola rivojlanishining me‘yorlarini ham kiritisa bo‘ladi.

So‘nggi yillarda turli sabablarga ko‘ra umumiy ta‘lim ololmagan bolalar haqida ham fikrlar bildirilmoqda. Bunday bolalarni alohida toifaga kiritamiz. Bular maktabga bormaydigan, faqatgina boshlang‘ich maktabni tugatgan, umumiy o‘rta ta‘lim olmagan bolalardir. Bunday holatlarni yuzaga kelishiga olib keluvchi sabablarga darslarning qoldirish, o‘qishni xoxlamaslik, oiladagi notinch vaziyatlar, pul topishga harakat qilishi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Ruhiy va jismoniy rivojlanishda og‘ishga ega bo‘lgan bolalar uchun alohida maktablar bo‘lib, u yerda ular professional mutaxassislar qo‘l ostida ta‘lim olishadi.

Bu bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvining asosiy muammosi ularning keyinchalik professional ta‘lim olishlari bilan bog‘liq.

O‘z ijtimoiy rivojlanishlarining buzilib bo‘lganligi sababli biror-bir kasbiy faoliyatni tanlay olmaydigan bolalarni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Bu bolalarni biron-bir ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sohasida o‘zlarini sinab ko‘rish xohishi yo‘qligi birlashtiradi. Bu xolatda bunday og‘ishni yengib o‘tish uchun mutaxassisning ijtimoiy pedagogik yordami zarur.

Ijtimoiy og‘ishlar “ijtimoiy me‘yor” tushunchasi bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy me‘yor bu insonlar, ijtimoiy guruhlar faoliyati yoki xulq-atvori jamiyat rivojlanishining biror-bir bosqichida shakllangan yoki rasman o‘rnatilgan qoidalari namunasidir. Aslida ijtimoiy me‘yor kerakli xulq-atvor, ijtimoiy munosabatlar va faoliyatlar modeli hisoblanadi.

Bolalar uchun ijtimoiy me‘yorlarning o‘ziga xos xususiyati shuki, ular tarbiya omili hisoblanib, uning jarayoni ijtimoiy me‘yor va qadriyatlarini o‘zlashtirish, ijtimoiy muhitga kirish, ijtimoiy tajriba va rollarni o‘zlashtirish sodir bo‘ladi. Bu holatda tarbiyaning boshqarish funksiyasi eng muhim vazifani bajaradi, chunki uning vazifasi bolalar ongi va xulq-atvoriga ta‘sir qiluvchi omillarni kerakli tarbiyaviy effekt ta‘minlanadigan darajada tashkil qilishdir.

Sotsiologik, psixologik va pedagogik adabiyotlarda deviant xulq-atvoriga ega bolalar muammolari ustida tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bu borada mamlakatimizda bunday bolalarning ta‘lim – tarbiyasini tashkil etish borasida e‘tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu bolalarga yordam ko‘rsatish uchun ixtisoslashgan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish shaxobchalari tashkil etilgan. Ijtimoiy xavfli xatti-harakat sodir etgan va 11 yoshga to‘lgan bolalarni sud tibbiy-pedagogik komissiyasi xulosani inobatga olgan holda maxsus maktablar yoki maxsus kasbiy bilim yurtlariga jalb etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotchi M. A. Galaguzova tomonidan turli og‘ish turlarining tasnifi quyidagicha tarzda berilgan bo‘lib, bu xol bolalar bilan ishlashda qulaylik tug‘diradi.

Jismoniy	Ruhiy	Pedagogik	ijtimoiy
-kasallik, -ko‘rish qobiliyatining buzilishi, -eshitish qobiliyatining buzilishi.	-ruhiy rivojlanishning to‘xtab qolishi, -aqliy qoloqlik, -nutq buzilishi, -iqtidorlilik.	-umumiy o‘rta ta‘lim olishdan chetga chiqish, -kasbiy ta‘lim olishdan chetga chiqish.	-etimlik, -xulq-atvor me‘yoridan og‘ish: aroxo‘rlik; norkamaniya; taksikomaniya; foxishabozlik; daydilik va b.

Ijtimoiy pedagogning xulq-atvorida og‘ishi bor bolalar bilan ish yuritishi og‘ishlar profilaktikasi, muayyan me‘yor va qoidalarni buzishni oldini olish, shuningdek xulq-atvorida u yoki bu og‘ish aniqlangan bolalarning reabilitatsiyasiga qaratilishi talab etiladi.

Nazorat savollar:

1. "Me'yor"ga amal qilish deganda nimani tushunasiz?
2. "Me'yor"dan chetga chiqish degandachi?
3. "Me'yor"dan chetga chiqishning qanday alomatlari mavjud?
4. "Me'yor"dan chetga chiqishni oldini olish mumkinmi?

1. Qarang: Sotsialnaya pedagogika /M.A. Galaguzova taxriri ostida. Moskva 2003

Mavzu: Ijtimoiy pedagogikada Deviatziya hodisasi

Reja:

1. Deviatziya haqida tushuncha.
2. Deviatziya turlari.
3. Deviant xulq - atvorni keltirib chiqaruvchi omillar.
4. Deviant xulq – atvorli bolalar bilan ishlash.

Tayanch tushunchalar: deviatziya, deviant, dilekvent, biologik, psixologik, ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, profilaktika, reabilitatsiya

Deviatziya - jamiyatda o'ratilgan xuquqiy, ijtimoiy, axloqiy qoida va me'yorlarga mos kelmaydigan xatti-harakat, xulq-atvoriga aytiladi.

Odatda deviatziya xodisasi va uning ko'rinishlari ko'p hollarda ularning o'smirlik davrida yuzaga keladi. Zotan, bu davr yosh davrlari ichida eng murakkabi bo'lib, uni o'tish davri deb ham yuritiladi. Darhaqiqat bu davrda o'smir hayoti va faoliyatida jiddiy o'zgarishlar, xususan anatomo-fiziologik, aqliy, ruxiy jihatlardan rivojlanish yuz beradi. Natijada ularda hamma narsaga qiziqish xissi kuchayadi, atrof-muhitga, hayotga bo'lgan munosabatlarida sezilarli darajada o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Garchi ularda o'zligini anglash, shaxsiy dunyoqarash, turli xodisalarga, o'zgarishlarga nisbatan baho berish kabi xususiyatlar shakllana boshlansa-da, ammo hali yetarli bilim, tajribaga ega bo'lmaganliklari sababli ko'p hollarda yagona hulosaga kelishda qiyinchilik sezishadi. Bu jihatdan ular kattalarning yordamlariga muhtoj bo'lishadi.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, bu davrda bolalarda kattalar, ayniqsa, otag'onalari o'rtasida muammolar tug'ilib turadi. Zero, kattalar va ota-onalari tomonidan o'zlariga kichkina bolaga qaraganday muomalada bo'lishlari yoqmaydi. Bu esa o'rtada ziddiyatlarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Shunday ekan, bu davrdagi bolalarga kattalar xushyorlik bilan munosabatda bo'lishlari zarur.

O'smirlik davri bolalarga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan yana biri ular o'zlaricha katta yoshdagi kishilar orasidan, yoxud badiiy asarlar, filmlardan ideal topishga harakat qilishadi.

Ko'p hollarda ular idealning tashqi ko'rinishi ya'ni qiziqtiradigan, o'zini tortadigan tomonlariga o'z e'tiborlarini qaratadilar. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, ularda tasavvurga nisbatan emotsiya (xissiyot) kuchliroq bo'ladi. Demak, o'smirlarning ideal tanlash jarayoniga ham kattalar, ayniqsa ota-onalar beparvo bo'lmasliklari zarur. Chunki, o'smirlardagi deviatziya xodisasining yuz berishida ayni hissiyot bilan bog'liq bo'lgan xususiyat sababchi bo'ladi.

Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor me'yorlaridan chetga chiqqan o'smirlarni qiyin o'smir yoki qiyin tarbiyalanadigan o'smir deyishadi. Qiyin tarbiyalanish deganda pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatish tushuniladi. O'smirning qiyin tarbiyalanishi, jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yor va qoidalarga amal qilinmasligini fanda deviatziya hodisasi orqali o'rganiladi.

Deviatziya ham insonga, ham uni o'rab turgan olamga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri bo'lib, ijtimoiy sohada o'zgaruvchanlik, insonning atrofdegilar bilan o'zaro munosabatini aks xulq-atvorida o'z ifodasini topadi.

Bundan kelib chiqadiki, me'yordan chetga chiqqan xulq-atvorni jamiyat rivoji va sivilizatsiyasini bola shaxsiyatining xususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida buzilishiga olib keluvchi bolaning jamiyat bilan munosabati sifatida tushunish mumkin.

Deviatsiyaning eng ommabop shakli uning shaxs qiyofasida ifodalanishi hisoblanadi.

Qiyofasida ko'rinadigan. chetga chiquvchi xulq-atvor ijtimoiy dezadaptatsiya ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bolalar va o'smirlar dezadaptatsiyasi haqida gapirganda bu jarayonga mansub bo'lgan bolalar toifalarini quyidagicha izoxlash mumkin.

Bular:

- maktabga qatnamaydigan maktab yoshidagi bolalar,
- etim bolalar,
- ijtimoiy yetimlar, bolalar uylarida joylar yetishmasligi sababli ota-onalik huquqidan mahrum etilganlar bilan birga vaqtincha yashayotgan bolalar;
- giyohvand va toksin moddalar iste'mol qiluvchi bolalar,
- jinsiy intizomsiz bolalar,
- g'ayri huquqiy hatti-harakatlar sodir etgan bolalar.

Deviatsiya - deviant, delikvent va jinoiy xulq-atvor shakllarida bo'ladi.

Deviant xulq-atvor-mikro ijtimoiy munosabatlar (oilaviy, maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog'liq me'yordan og'uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Deviant xulq-atvorga o'qishdan qochish va daydilik, bolalar va o'smirlarning aroqxo'rlik, giyohvandlik va u bilan bog'liq g'ayri ijtimoiy harakatlar, jinsiy harakterdagi hatti-harakatlar, o'ziga suiqasd qilishga urinish kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Delikvent xulq-atvor deviantdan farqli ravishda bolalar va o'smirlarning takrorlanib turuvchi g'ayri ijtimoiy hatti-harakatlar sifatida harakterlanadi. Bu huquqiy me'yorlarni buzuvchi, biroq ijtimoiy xavf darajasiga ko'ra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan harakatlardir.

Delikvent xulq-atvorning quyidagi turlari mavjud:

- agressiv xulq-atvor, bunga haqoratlash, sadistik harakatlar, o't qo'yish kabilar kiradi;
- g'arazli xulq-atvor: (kichik o'g'riliklar, ta'magirlik, avtoulavlarni olib qochish va mulkiy tajovuzlar);
- giyohvand moddalarni yetishtirish va tarqatish.

Jinoiy hatti-harakat jinoiy javobgarlikka tortishga, ma'lum yoshga yetganda jinoiy ish qo'zg'ashga sabab bo'luvchi va jinoyat kodeksining muayyan moddalarida nazarda tutilgan g'ayri huquqiy hatti-harakatlar hisoblanadi.

Deviatsiyaning salbiy turlari ijtimoiy potologiya hisoblanadi. Bularga aroqxo'rlik, toksikomaniya, giyohvandlik, fohishabozlik, o'z joniga qasd qilish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni kiritish mumkin.

Voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir:

Biologik omillar. Bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anatomik xususiyatlarning mavjudligi natijasida o'z ifodasini topadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- irsiy xususiyatlar;
- aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi va boshqalar;
- organizmga psixofiziologik zo'r berish, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, turli somatik, allergik, toksik kasallanishlarga olib keluvchi, ya'ni quvvat manbalari bilan bog'liq bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar.

Psixologik omillar. Bularga bolada psixopatologiya yoki harakterining aksetkatsiyasining borligi kiradi. Bu me'yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari, psixopatiya, nevrosteniya va bolada g'ayri adekvant reaksiyalarni paydo qiluvchi boshqa omillarda namoyon bo'ladi.

Ruhiy me'yorning eng keskin varianti hisoblanmish aksentuatsiyaga ega bolalar psixologik ta'sirlar uchun nihoyatda qaltis hisoblanadilar va ijtimoiy tibbiy reabilitatsiyaga ehtiyoj sezadilar.

Bola rivojlanishining har bir davrida shaxsiyat va harakterning ba'zi ruhiy hislatlari shakllanadi. O'smirda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: yoki u yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki ko'nikib ketadi. Agar oilada bola ota-onasi tomonidan yetarli mehr his qilmasa unda bu holatda uning himoya vositasi vazifasini begonalashuv bajaradi. Bu begonalashuv asabiy reaksiyalar, atrofdagilar bilan munosabatlarning buzilishi, emotsional sovuqlik, psixik rivojlanishning to'xtab qolishi, turli ruhiy patologiyalarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-pedagogik omillar Maktab, oila va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'lib, uning asosida yoshlik chog'ida salbiy tajriba to'planishligi bilan bolaning erta ijtimoiylashuvidagi og'ishlarga olib keluvchi yosh, jinsiy va individual hususiyatlar yotadi. Bunday bolalar maktabda yomon o'qishadi, darslarni ko'plab qoldirishadi, uy vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qarashadi, maktab baholariga befarqliklarini bildirishadi. Bu esa ularning o'quv dezadaptatsiyasidan dalolat beradi.

Maktab o'qovchisining dezadaptatsiyasi o'z rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o'tadi:

-o'quv dekompensatsiyasi-bola bir yoki bir nechta fanlarni o'zlashtirishida qayinchiliklar paydo bo'lishi bilan harakterlanadigan holat;

-maktab dezadaptatsiyasi -o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar bilan bir qatorda o'qituvchilar, sinfdoshlar bilan nizolashishda namoyon bo'ladigan, xulq-atvor buzilishi bilan harakterlanadigan;

-ijtimoiy dezadaptatsiya-bu holatda o'qishga, maktab jamoasiga qiziqish batamom so'nadi, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga qiziqish kuchayadi;

-bo'sh vaqtni o'tkazish muhitining kriminallashuvi.

Bolaning psixo ijtimoiy rivojidagi me'yordan chiqishning yana bir salbiy omili noxush oila hisoblanadi. Voyaga yetmagan bolalarda g'ayri ijtimoiy xulq-atvorni shakllanishiga olib keladigan oilaviy munosabatlar turlarini ajratib ko'rsatish ham muhim ahamiyatga ega. Ular:

-o'zida bir tomondan bola xohishlariga erk berish, boshqa tomondan esa bolani nizoli vaziyatlarga undashni yoki oilada ikki axloq-oila uchun yurish-turish qoidalari, jamiyat uchun umuman boshqa qoidalarni mujassam etgan tarbiyaviy munosabatlar turi;

-to'liqsiz oilada, bolalar va ota-onalarning uzoq muddat alohida yashashlari sharoitida tarbiyaviy ta'sirlarning beqaror turi;

-spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'moli, g'ayri axloqiy hayot tarzi, ota-onalarning jinoiy xulq-atvori bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar turi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Ijtimoiy tengsizlik, jamiyatning tabaqalashuvi, ishsizlik, inflyatsiya, daromad olish usullarining cheklab qo'yilishidan iborat.

Axloqiy omillar. Bir tomondan jamiyatning axloqiy darajasida qadriyatlarining yo'qolib ketishida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan esa jamiyatning deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishiga befarq qarashida o'z aksini topadi.

Ilmiy nazariy va amaliyotda deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlashning ikki asosiy: profilaktika va reabilitatsiya shakllari mavjud.

Profilaktika-o'smirlar xulq-atvorida ijtimoiy me'yorlardan og'ishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy va davlat tadbirlarining majmuasidir.

"Profilaktika" atamasi o'zi noxush oqibatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish ma'nosini bildiradi.

Ijtimoiy og'ishlar turli sabab va holatlardan kelib chiqishini inobatga olingan holda, profilaktik chora-tadbirlarning bir nechta turlarini ko'rsatish mumkin:

-neytrallashtiruvchi,

-o'rnini to'ldiruvchi,

- ijtimoiy og'ishlarga sabab bo'luvchi holatlarni yuzaga kelishidan ogohlantiruvchi,

-bu holatlarni bartaraf etuvchi,

-o'tkaziladigan profilaktika ishlarini nazorat qiluvchi.

Reabilitatsiya keng turdagi vazifalar, elementar ko'nikmalardan tortib insonning jamiyatda to'liq integratsiyalashuvigacha bo'lgan masalalarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida qaralishi mumkin.

Reabilitatsiya ob'ektlari quyidagilar:

1. Ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar.
2. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar, yetim bolalar, xulq-atvorida chetga og'ish bo'lgan o'smirlar.
3. Psixosomatik va nerv-psixologik sog'ligi buzilgan va funksional og'ishlarga ega bolalar.
 - surunkali somatik kasalliklar,
 - funksional buzilishlar,
 - asab-ruhiy hastaliklar,
 - aqliy qoloqlik,
 - nogironlik.

Reabilitatsiyaning bir qancha turlari mavjud: tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy, kasbiy, maishiy.

Tibbiy reabilitatsiya bola organizmining u yoki bu yo'qotilgan funksiyasini o'rnini to'ldirish yoki to'liq va qisman tiklashga qaratilgan bo'ladi.

Kasbiy reabilitatsiya o'smirmi biror-bir kasbga o'rgatish, u uchun yengillashtirilgan sharoitli va qisqartirilgan ish kuniga ega ish joylarini qidirishdan iborat.

Maishiy reabilitatsiya o'smir uchun me'yori yashash sharoitlarini yaratishga qaratiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy reabilitatsiya deganda esa o'smir huquq va manfaatlarini himoya qilish, unga tegishli bo'lgan moddiy mulklar, to'lovlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi.

Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya-bola hayotiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega shaxsiy hislatlarni, uning jamiyat integratsiyasiga yordam beruvchi faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, ijobiy rollarni, jamiyatda yurish-turish qoidalarini o'zlashtirishi, kerakli ma'lumot olishga qaratilgan tarbiyaviy harakterdagi chora-tadbirlardir.

Deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyasi reabilitatsion markaz deb nomlanuvchi ixtisoslashgan muassasalarda amalga oshiriladi. Bu muassasalarning vazifalari:

- nazoratsizlik, daydilik profilaktikasi,
- ota-onasi aybi bilan yoki ekstrimal vaziyat tufayli qiyin hayotiy holatga tushib qolgan bolalarga tibbiy-psixologik yordam,
- ijobiy, ijtimoiy xulq-atvor, atrofdagilar bilan muomila qilish ko'nikmalarini shakllantirish,
- ota-onasi qaramog'isiz qolgan bolalarga nisbatan vasiylik funksiyalarini bajarish,
- shaxsning inqirozli ruhiy holatlarini bartaraf etishga yordam beruvchi ruhiy va pedagogik qo'llab-quvvatlanish,
- oilaga qaytib kelishga ruxsat,
- me'yori rivojlanish, ta'lim olish imkoniyati bilan ta'minlash,
- ishga joylashtirilishiga g'amxo'rlik qilishdan iborat.

Nazorat savollari:

1. Deviatatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Deviatatsiyaning qanday turlari mavjud?
3. Deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar?
4. Deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlashning shakllarini tavsiflang?

Mavzu: Iqtidorli bolalar bilan ishlashda ijtimoiy pedagogning o'rnini .

Reja:

1. Iqtidorli bolalar va ularga xos bo'lgan shaxsiy sifatлари.
2. Oilada talantli bolalar va ularning o'ziga xosligi.
3. Iqtidorli bolalar va inklyuziv ta'lim.
4. Iqtidorli bolalar bilan ishlashda oila va ijtimoiy pedagog faoliyatini uzviyligi.

Tayanch tushunchalar: iqtidor, talant, daholik, ijtimoiy iqtidor, badiiy iqtidor, akademik iqtidor, intellektual iqtidor, psixomotor iqtidor, ijodiy iqtidor, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy pedagog.

Hozirgi davrda aqlan zukko, kreativ qobiliyatli, mustaqil mulohaza yurituvchi yuksak iqtidorli, talantli yoshlarga eng qulay shart-sharoitlar yaratish, ular faoliyatini aniq maqsad sari yetaklash, boshqarish bugungi kunning talabidir.

Bunday yoshlar turli soxalarda xalqning milliy imkoniyatlarini jaxon talablari darajasiga olib chiqaoladigan qudratli kuchga ega. Mazkur nuqtai nazardan muammoga yondashish, iqtidorli yoshlarni izlab topish, ular faoliyatini yo'lga qo'yish muximdir.

Iqtidor, talant, daholik inson qobiliyati rivojlanish darajasining eng yuqori bosqichidir. Iqtidor tushuncha bo'ladi. Ulardan biri ijtimoiy iqtidor bo'lib, peshqadamdik (boshlovchilik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik) deb atash mumkin.

Iqtidorning bu turi oilada ham, maktabda ham hech qanday ziddiyatga sabab bo'la olmaydi.

Mutaxassislar tomonidan ko'proq o'rganilgan iqtidor bu badiiy iqtidor bo'lib, bunda bolada musiqaga, tasviriy san'atga, sahna madaniyatiga qiziqish o'ta kuchli bo'ladi. Bolaning sportga bo'lgan qiziqishi, ishtiyoqi va jismoniy qobiliyati psixomotor iqtidor deb ataladi.

O'quvchi yoki talabaning bilim olishdagi o'ziga xos kuchli qobiliyati, bilim olish uchun intilishi va tirishqoqligi akademik iqtidor deb ataladi.

Tahlil qilishda, fikrlashda, faktlarni taqqoslashda namoyon bo'ladigan qobiliyat intilektual iqtidor deb ataladi.

Bunda bola oilada - aqli, maktabda - a'lochi. Ba'zida - bunday bola faqat bir yoki ikki predmet bo'yicha a'lo bilimga ega bo'lishi mumkin, biroq boshqa predmetlar bo'yicha ulgurmay, ijobiy bilimlarga ega bo'la olmaydi. Ijodiy iqtidor dunyoni boshqacha anglashda va boshqacha fikrlash jarayonida namoyon bo'ladi. Bunday bolalar ba'zida o'z maqsadlari sari intiladilar va maqsadiga yeta olmay «Omadsiz» bo'lib qoladilar. Ular bolaligida oilada va maktabda ko'pchilikni g'ashiga tegadilar. Bunday bolani ertaroq aniqlab, o'z vaqtida yordam ko'rsatish kerak. Umuman olganda iqtidorli bolalarda bilim olishga ehtiyoj kuchli.

Ularni o'qishga majbur qilishning keragi yo'q. Ular o'zlariga ish topib oladilar, ko'p hollarda bu ish juda murakkab va intellektual bilimni talab etadi. Ular aqliy mehnatni xush ko'radilar. Bu esa ota - onalarda qo'rquv va xijolat chekish holatlariga sabab bo'ladi. Iqtidorli bola kattalar bilan muloqatda bo'lishni yaxshi ko'radilar, chunki ular (katta yoshdagilar) bolani tushunadilar va bu muloqotdan zavq oladilar. Tengdoshlari uni tushunmaydilar, ustidan kuladilar va har xil laqablar bilan atay boshlaydilar. Bunday bolalarning sezgirligi juda kuchli bo'lib ko'rinadi. Ular juda tez, arzimagan narsadan ham janjal chiqarishi mumkin, bu injiqlik emas balki o'ta sezgirlik, oqibatidir. Ijod qilishga moyil bolalar vazmin bo'ladilar, ular bolaligidan o'zini iqtidori tufayli aziyat chekishi mumkin.

Bunday bolalarda yumorga kuchli tug'ma xissiyot mavjudligi sezilib turgandek bo'ladi. O'zlari xazil qilmasa ham kichkinagina vaziyatdan yoki holatdan kulgili narsa axtarib topa oladilar. Ularning nutqlari ham o'zgacha. Ularning yurish - turishi, atrofdagilarga bo'lgan munosabati boshqa bolalarnikidan ancha farq qiladi. Yuqorida aytilgan fikrlarga hulosa yasab shuni ta'kidlab o'tish kerakki, iqtidorli bolalarni boshqa hususiyatlarini hisobga olgan holda umumjaxon sog'liqni saqlash tashkiloti qaroriga muvofiq ular aqli zaif, voyaga yetmagan huquqbuzarlar, ichkilikbozlikka mukkasidan ketgan kishilarning bolalari qatori «qaltis guruhga» kiradilar.

Ular maxsus tarbiya, maxsus individual o'quv dasturlari, maxsus tayyorgarlikka ega o'qituvchilar, maxsus maktablar darkor. Oiladagi iqtidorli bola oilaning faxri. Ko'p

xollarda oilada bolaning iqtidori sezilmay qolishi mumkin. Agar bola oilada to'ng'ich farzand bo'lsa yoki hamma bolalari talantli bo'lsa bu oilada odatiy hol hisoblanishi mumkin.

Biroq hamma ota - onalar ham, bunday bolalar bilan faxrlanmaydilar. Farzandini boshqalardan ajrab turishini hojlamaydilar. Agar ota - onalar o'z farzandlaridagi iqtidorni o'z vaqtida sezib, unga har tomonlama yordam berishganda edi, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ayrim hollarda talantli bolalarni oilada qiynab yuboradilar. Bunga bola bardosh bera olmasligi mumkin va aksincha talantsiz, qobiliyatsiz bolani ota - onalari undan ko'p narsa talab qiladilar, bunday jarayon bolaning sog'ligini izdan chiqarishi mumkin. Sog'liqni o'nglash mumkundir, lekin yetkazilgan ma'naviy zararni bartaraf etish ancha qiyin. Talant bo'lsa unga o'z vaqtida yordam berish bu yaxshi, lekin talant «yaratish» bolani haqoratlashdir.

Ota - onalar farzandini iqtidorini ko'p hollarda bolaning erta tili chiqishi nutqini rivojlanishi, ertaroq sanashni o'rganishi, hotirasining o'tkirligi va qiziquvchanligi bilan ifodalaydilar. Bunday bolalarda tasavvur va tafakkur tezligi ham karakterlidir, ayrim hollarda bunday xususiyatlar aniq namoyon bo'lmaydi. Ota - onalarning muhim vazifalari shundan iboratki, bunday farzandning har tomonlama rivojlanishini kuzatib, sezib turishlari lozim. Aniqroq qilib aytganda, bunday bolalarni o'z vaqtida sezib iqtidorini aniqlash va uning rivojlanishiga yordam berishi kerak.

N.N.Rimski - Korsakovni qobiliyatini 2 yoshligida, I.Ye.Repinning 4 yoshligida P.I.Chaykovskini 5 yoshida sezishgan.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy juda ham kichik yoshligida «Qush tili» asarini o'rgangan, yoshligidan she'riyatga iqtidori borligini namoyon etgan.

Pushkin 9 yoshidan Lermontov 10 yoshidan she'r yoza boshlaganlar. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Oila uchun nafaqat iqtidorli bolani aniqlash, balki bunday bolaga alohida munosabat ko'rsatish mumkin emas, chunki bu xol boshqa negativ (ziddiyatli) holatlarni keltirib chiqarishi, ya'ni oiladagi boshqa bolalar o'rtasida noto'g'ri qarash, munosabatlarni yuzaga kelishiga sababchi bo'lishi mumkin. Bu o'rinda maktabda faoliyat yurituvchi ijtimoiy pedagog faoliyatini yo'lga qo'yish yaxshi samara beradi. Buning uchun birinchi navbatda ijtimoiy pedagog bolaning iqtidori qay darajada ekanligidan qat'iy nazar, uni o'qitish muhimligini yoddan chiqarmasligi kerak. Uni (iqtidorli bolani) sabir - qanoatga, mehnat qilishga va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatib borish kerak.

Ijtimoiy pedagog iqtidorli bolaga nisbatan munosabatini to'g'ri tashkil qilib borishi kerak, faqat shundagina u bilan bo'ladigan o'zaro munosabatni to'g'ri yo'lini topishi mumkin.

Iqtidorli bolaning nimasi o'ziga xos?

Ota - onalari uning nimasi bilan fahrlanadi?

Talantli bola ota - onalarini hovliqtirib yubormayaptimi?

Oilada bo'ladigan ziddiyatlar shu bolaga bo'layotgan bosim zamirida paydo bo'lishi mumkin. U har xil bosim va kamsitishlarni yoqtirmaydi, baqir - chaqirlarga chidab tura olmaydi, ota - onalar esa buni yodidan chiqaradilar va bu katta muammoga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy pedagog ota - onalarga bolaning individual ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda yordam berishni, mutaxassislarga yo'llanma berish, maslahatlar tashkil qilishni, ota - onalar va o'qituvchilar o'rtasida muntazam aloqa o'rnatishi zarur.

Iqtidorli bola tez - tez kayfiyatini o'zgartiradi, muloqotda shoshqaloq, suhbatdoshini fikrini bo'ladi. O'z bilimini namoyish qiladi. Natijada unda kutilmagan favqulotda xatti - harakatlar namoyon bo'ladi Ular orqada qolish yaxshi emas deb hisoblaydilar, doimo birinchi bo'lishga harakat qiladilar. Suhbat mobaynida noaniqlik sezilib qolsa o'rnida to'g'rilaydilar. Mana shu xususiyatlarning hammasi chidam, sabr - toqatni tarbiyalashni taqozo etadi.

Talantli bolalar yaxshilik, sahovat, adolat va mehr - muruvvat nima ekanligini yaxshi biladilar, biroq amadda bu go'zal g'oyalarni hayotga tadbiiq eta olmaydilar. Bu yerda ijtimoiy pedagogning yordami muhim o'rin tutadi.

Qiziquvchanlik hamma narsani bilishga intilish katta ijodiy imkoniyat hayot tarzimizga aylanib qolgan axloqiy me'yorlarining atrofdegilar bilan munosabatning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Bu yerda ijtimoiy pedagog ota - onalar bilan mustahkam aloqada bo'lishi darkor. Iqtidorli bolalar bilan ishlashda ijtimoiy pedagog faoliyatining asosi ular bilan oila hamkorligida inklyuziv ta'limni keng yo'lga qo'yishdan iborat. Bunday hamkorlik zamirida bolani bo'sh qo'ymaslik, vaqtini mazmunli o'tkazish, maktabgacha yoshdagi davrdan boshlab, ijodiy mehnatga jalb qilish, ijod uchun sharoit yaratib berish yotadi. Ota – ona va o'qituvchi hamkorligida inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yishning mohiyati, bular o'rtasidagi o'zaro tenflik asosida iqtidorli bola bilan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishdan iborat. Ushbu interfaol ta'lim jarayonida iqtidorli bolalarni tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalardan foydalanib bilish faoliyatini maxsus tashkil qilish va bu orqali ulardagi intellektual imkoniyatlarni to'laroq ochib berishga imkon yaratiladi. Bu o'rinda ta'limni jamoaviy, guruhli, kompyuterli shakllardan ham keng foydalanish va bu orqali iqtidorli bolalar bilish jarayonini to'liq nazorat qilish mumkin. Nazorat qilish esa o'zaro kelishilgan holda ota-onalar va ijtimoiy pedagog tomonidan bir vaqitda, yoki ma'lum ketma-ketlikda yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq. Ijtimoiy pedagog bunday nazorat shakli, usulini oldindan belgilab (mahsus mutahassislar bilan maslahatlashib) ota-onalarni tayyorlab boradi.

Ijtimoiy pedagog faoliyati yuqoridagilardan tashqari iqtidorli bolalar faoliyatini maktabdan tashqarida maqsadli yo'lga qo'yishga e'tiborini qaratishi jihatdan ham ahamiyatlidir. Buning uchun esa iqtidorli bolalar bilan ijtimoiy pedagogni ish olib borishining zamonaviy shakllardan biri, bolalar ijodiyoti uylari, markazlari, turli to'garaklar bo'lib bular bilan ishlashda mazkur ta'lim maskanlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. Iqtidorli bolalar uchun umumiy bo'lgan shaxsiy sifatlar qaysilar?
2. Oilada talantli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
3. Ijtimoiy pedagogning iqtidorli bolalar bilan ishlashda o'zaro hamkorlik nimadan iborat?
4. Inklyuziv ta'lim haqida nimani bilasiz?

Mavzu: Ijtimoiy pedagog faoliyatini yo'lga qo'yish.

Reja:

1. Ijtimoiy pedagogning asosiy vazifalari
2. Ijtimoiy pedagog tarbiyaviy ishining o'ziga xosligi.
3. Ijtimoiy pedagog faoliyatida foydalanadigan metodlar.

Tayanch tushunchalar: Ijtimoiy g'amxo'rlik, insonga ta'sir o'tkazish, ta'limning ijtimoiy strukturasi, ijtimoiy himoya, ma'naviy yordam.

Hozirgi zamon sharoitida turli ijtimoiy tuzilmalar ishida ijtimoiy pedagog shug'ullanishi lozim bo'lgan ijtimoiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari aniqlanadi. Bu yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Moddiy yordam ko'rsatish (puldan, nafaqa va imtiyozlar, turmushda yordam);
2. Ijtimoiy g'amxo'rlikni tashkil qilish (odamlar bilan ish olib borish, hodimlarni tanlash) tekshiruv, ilg'or tajribani targ'ib qilish;
3. Insonga ta'sir o'tkazish.

Insonga ta'sir o'tkazish - bu pedagogik, psixologik ta'sir jarayonlaridan iborat bo'lib, u bilan ijtimoiy hodim, ijtimoiy pedagog shug'ullanishlari lozim.

Ijtimoiy pedagogning amaliy ishida uning faoliyatidagi birinchi navbatda hal qilinishi lozim bo'lgan muammolarni aniqroq ko'rsatib o'tsak. Ijtimoiy pedagog ijtimoiy tarbiya, oila pedagogikasi, bola shaxsi nima ekanligini, bola bilan muloqot va unga ta'sir o'tkazish metodlari, tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi shart. Ijtimoiy pedagog ishining asosi nimadan iborat, u maktabdagi pedagog ishidan, fan o'qituvchisi ishidan, xattoki sinf rahbari, maktab - internat tarbiyachisi yoki uni uzaytirilgan guruh tarbiyachisi ishidan nimasi bilan farq qiladi.

O'qituvchi ko'proq sinf yoki guruh bilan ish olib boradi va asosan uning ish uslublari jamoa bilan ishlashga yo'naltirilgan. Ijtimoiy pedagog alohida bola, alohida shaxs, o'smir bilan, agarda zarur bo'lsa, unchalik katta bo'lmagan, oila bo'lsa har biri bilan alohida ish olib boradi.

Ijtimoiy pedagogning asosiy vazifasi bolani sinfni ijtimoiy muxofazasi, unga ijtimoiy, tibbiy yordam berish, uning o'qishini tashkil qilishni, jamiyatda u o'zini o'rnini topishi, jamiyat hayotiga moslashuvini bilishidan iborat. Bu vazifalarni ijobiy hal etish uchun ijtimoiy pedagog bola va uning holatini, inqiroz darajasini o'rganishi va buni yengib o'tish rejalarini tuzadi.

Bolaga qiyin paytda yordam berish uni qo'llab - quvvatlash oson ish emas. Bolaga bu xolatni bartaraf etishda qanday yordam ko'rsatish kerak? Ushbu vaziyatda ijtimoiy pedagog o'zini qanday tutushi kerak?

Ma'naviy yordam berish, bola haqiqatda qiyin vaziyatda ekanligi, buni yengib o'tish yo'lini ko'rsatish, ijobiy xulosaga kelish, to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish, hayotda hali yaxshi tomonga o'zgararishlar bo'lishiga ishontirish lozim. Pedagog bolaga yordam berishi mumkin bo'lgan mutaxassislar, ijtimoiy muxofazani amalga oshiradigan idoralar bilan aloqa o'rnatadi. Buning uchun pedagog chuqur bilimga, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi shart. Shundagina olib borilayotgan o'quv - tarbiya ishlarida yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Hozirda bu pedagogik mahorat deb ataladi.

Pedagogik mahoratning qay darajada ekanligi pedagogning shaxsiy kasbiy sifatleri, uning bilimiga bog'liq. Kasbiy pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya masalalariga murojaat qilmasdan ijtimoiy pedagog faoliyatini tasavvur qilish mumkin emas.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy bilimlari: pedagogika, psixologiya, tarbiyaviy ish metodikasi, bolaning rivojlanishi fiziologiyasi. Bu bilimlar bolani xatti - harakatlarini kuzatish va tahlil qilishda, muloqotidagi hususiyatlari va bolalar guruhidagi o'rnini o'rganishda zarur hisoblanadi. Ijtimoiy pedagog bolalar hamkorligi va faoliyatini tashkil qilishni bilishi lozim. Pedagogik texnologiya tushunchasi ham borki, undan ijtimoiy pedagog samarali foydalanishi darkor.

Ijtimoiy pedagog nutq texnikasi va nutq madaniyatiga diqqatini qaratishi lozim bo'ladi. Uning fikrlari teran, nutqi ravon bo'lishi kerak. Teatr pedagogikasining ayrim jihatlari ham ijtimoiy pedagogda qiziqish uyg'otishi mumkin. Pedagogning ishi rejisser ishiga, aktyor ijodiga yaqin. Bolaga aktyorlarcha ta'sir o'tkazish ijtimoiy pedagog ishida samara berishi mumkin. Ijtimoiy pedagog yuksak tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. To'g'ri qaror qabul qilish, qayta tiklash (reabilitatsiya) ishlarini tashkil qilishni bilishi kerak. Ijtimoiy pedagog bola boshiga tushgan kulfatga duch kelishi mumkin.

Masalan: Ota - onadan erta judo bo'lishi, oiladagi nosog'lom muhit vahokazo.

Bular bolalar hayotida turli psixik o'zgarishlarga, kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi zamon sharoitida ijtimoiy pedagog faoliyatidan quyidagi joylarda foydalanish mumkin:

maktab - internatlar, mehribonlik uylarida;

- bolalar - sihatgohlarida. - ijtimoiy - ta'limiy markazlarida;

- ijtimoiy psixologik yordam markazlarida;

madaniy markazlarda, dam olish markazlarida, yoshlar klublarida;

yozgi lagerlarda;

mahallada, mahalladagi pedagog murabbiy bilan, xotin - qizlar qo'mitasi, uchastka inspektori bilan muomala o'rnatish;

Ijtimoiy pedagog tarbiyaviy ishlarining o'ziga xosligi.

O'rta umumta'lim tizimida eng zamonaviy mutaxassisliklardan biri - bu ijtimoiy pedagoglik kasbidir. Uning asosiy vazifasi - tarbiyaviy ishlarni hayotiy muhim oilaviy va ijtimoiy muammolarni o'zida his etayotgan yosh avlodni tarbiyalash bilan qo'shib olib borishdan iborat, qiyin bo'lgan turmush masalalarini yengillatish, so'z va amalda yordam berish, ijtimoiy pedagog amaliy faoliyatining axloqiy pozitsiyasi va yo'naltirilgani ana shulardan iborat.

Bu vazifalarni hal etishda quyidagicha yo'l tutishga harakat qilinadi.

1. Amaliy qism; shahardagi maktablardan birini sinf rahbari bilan suxbatlashib uning fikrini olish;

2. Nazariy qism; shu soha bilan shug'ullanayotgan olimlar ilgari surgan nazariy materiallar bilan tanishish;

Suhbat, tushuntirish mavzusi, hozirgi murakkab iqtisodiy bozor munosabatlari sharoitida bolalar va o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Tanlangan shakl ijtimoiy pedagog ishining mohiyat va mazmunini ma'lum darajada bayon etishga imkon beradi. Maktab jamoasining hayotidan olingan aniq misollarga tayanish nazariy harakterli hulosalarni yana ham asosli tarzda umumlashtirishga yordam beradi. Quyida maktab ijtimoiy pedagogi bilan qilingan suhbatni keltiramiz: Hurmatli Sanobar Alievna, (keltirilgan ism va familiya to'qima) sizning ishingizni o'ziga xosligi nimada?

Maktab yoshlarining ko'plab muammolarini yechimida kimlar bilan faoliyat ko'rsatasiz?

- Bir qator shahar va viloyat muassasalari bilan hamkorlikda ish yuritamiz.

Masalan: mahallalardagi faollar, ilg'or oilalar bilan shahar va viloyat oila markazlari, Xotin-qizlar qo'mitalari, diniy idoralar, narkologik dispanserlar, jamoatchilik asosidagi mahalla posbonlari, o'smirlar bilan ishlovchi uchastka noziri va boshqalar bilan aloqada ish olib boramiz. Bolalar bilan ishlash - bu bir vaqtning o'zida ularning ota - onalari bilan ishlash hamdir. Ular bilan suxbatlashamiz, ayrim hollarda ularga ta'sir o'tkazishga yoki ularning qo'llab - quvvatlashlarini ta'minlashga erishamiz. Shunday bir voqea bo'lgan edi. Maktab yuqori sinf o'quvchisi boshqa quyi sinfdagi bola bilan tanishib, yaqin bo'lib qolishdi. Yuqori sinfdagi o'quvchi chekish, ichish borasida katta tajribaga ega bo'lib uyiga juda kech kelardi, ba'zan turli joylarda yotib qolardi, kimlar bilan va nimalar bilan shug'ullanishi aniq emas edi. Keyinchalik o'zi tanishgan quyi sinfdagi o'rtog'ini ham ana shunday ishlarga o'rgata boshladi. U ham chekishni, ichishni o'rgana boshladi. Uylarga kech keldi, unda ham usti boshi kir, dazmollamagan, yuzi so'lgan, ko'zlari qizargan holda kelar edi. Undagi bunday o'zgarish meni e'tiborimni tortdi. Boladagi o'zgarishlar sababini surishtirganimda yuqori sinfdagi ana shu bola bilan «o'rtoqlashib» qolganini va bolani xulq - atvorini aytib berdi. Tezlik bilan ko'rilgan chora - tadbir natijasida bolani bu noto'g'ri yo'ldan qaytarishga muvaffaq bo'ldik. Buning uchun sinfdagi o'quvchilarni bu bolaga alohida e'tiborini qaratishga to'g'ri keldi. Sinfdagi o'quvchilar u bilan suxbatlashib, uni turli qiziqarli to'garaklarga tortish, unga g'amxo'rlik qilishga, birgalikda dars tayyorlash, bo'sh vaqtlarini birga o'tkazishga harakat qilishda, agar biron bir narsadan qiynalsa yoki kasal bo'lib qolsa yordam berishi, unga turli yo'llar bilan mexribonlik ko'rsatishga harakat qilishdi. Albatta bu o'rinda yo'nalish maslahat, ko'rsatmalar berib bordim. Xuddi shunday e'tiborni yuqori sinfdagi haligi o'quvchiga ham qaratildi. Mahalla oqsoqollari, uchastka nozirlari yordamida u o'quvchi ham sog'lom hayotga qaytdi. Aytib o'tish kerakki yuqori sinf o'quvchisi ota - onasi yo'q, bo'sh vaqti katta buvisi qaramog'ida bo'lgani, mening sinfimdagi bolani esa oilasida aka - ukalari ko'p bo'lib, ular iqtisodiy qiyinchilikda yashar edilar. Shundan so'ng, bu oilalarga e'tibor ham iqtisodiy, moddiy, hamda ma'naviy yordam kuchaytirildi.

Kattalarning begona oilalar bolalariga g'amxo'rliigi alohida e'tiborli - bu jamiyat uchun ham, o'smoqda bo'lgan yosh avlodga ham katta yordam beradi.

Hozirgi vaqtda shahar va viloyatlardagi maktab, litsey va kollejdagi ayrim o'quvchilarga narkotik va toksik moddalar yordamida ukol qilish hollari uchramoqda. Bunday illatlarni oldini olish uchun sizlarda qanday chora - tadbirlar amalga oshirilmoqda?

Bu borada shahardagi narkologik dispanser bilan doimo aloqada bo'lib turamiz. Chunki, maktab shaharning qoq markazida joylashgan va turli millat bolalari o'qiydigan ta'lim muassasasi bo'lib, hammavaqt ham o'quvchilarni doimiy nazoratda saqlash qiyin. Uning ustiga ko'p bolalarning ota - onalari ish bilan band bo'lganligi sababli o'z farzandlarini hamma vaqt ham nima bilan shug'ullanishini bilavermaydi. Shu sababli maktab jamoasi bolalarni o'rab to'rgan muhit, darsdan keyingi faoliyatini kuzatish va o'rganishga alohida e'tibor berishadi. Bundan tashqari narkomaniya va uni oqibatlarini to'g'risida mutaxassis vrachlar suxbatlari uyushtiriladi. Shunday illatga o'rganganlar hayotidan olingan filmlarni birgalikda tomosha qilish, ularni muxokama qilish bilan shug'ullanamiz. Mana shu tarzda o'tkazilgan tadbirlar narkomaniyaga ruju qo'ygan ota - onalarni o'rganish va ular o'rtasida profilaktika o'tkazish orqali ham amalga oshiriladi.

Jamiyatda tabaqalanish yuzaga kelmoqda. Birida qator - qator mashinalar, koshona uy - xovlilar, dachalar oila a'zolari esa turli - tuman qimmatbaho kiyinishgan. Boshqalar esa baholi qudrat, kiyinishi ham shunga yarasha. Mana shunday ijtimoiy farqlanish maktab ta'lim tarbiyasida qanday o'z ta'sirini ko'rsatmoqda?

Ota - onalarni bunday ijtimoiy holatlari bolalar psixologiyasi va harakteriga, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatyapti?

Bu borada bolalar o'rtasida tortishuvlar bo'lib turadi. Yaqinda bir sinfdagi o'quvchi qizlar o'rtasida ziddiyat kelib chiqdi. Kam ta'minlangan oiladan kelib chiqqan qizga nisbatan 3-4 sinfdagi qizlar «bechora», «ozg'inligini qarang», «hech nimasi yo'q» kabi shaxsga teguvchi haqoratomuz so'zlar aytishgan, turli laqablar qo'yishgan. Haqoratlash pastga urishlar qizni jaxlini chiqargan va haqoratlagan qiz bilan urishib, uni yuziga tarsaki solishgacha borgan. Ana shunday kam ta'minlangan oilalardan kelgan bolalarga nisbatan yumshoq ko'ngillik, do'stona munosabat, hushmuomalalikni qanday qilib tarbiyalash mumkin?

Biz bu o'rinda islom dini qoidalariga, hadis ilmiga, din ulamolarining suhbatlari orqali ushbu masalalarni yechimini topishga harakat qilamiz?

Masalan, viloyatimizdagi machitlardan birining din ulamosi o'quvchilar bilan 5 ta uchrashuv o'tkazdi. U o'z suhbatida islom dinining mohiyat, mazmunini bolalarga yetkazishga harakat qildi. U asosan, musulmon bandalari doimo bir - birlariga mehribon, xushmuomalada bo'lishlari kambag'al, keksalarga doimo yaxshilik qilishlari lozimligini ishonarli dalillar, tarixiy hikoyatlar asosida yetkazishga erishdi. Bunday uchrashuv va suhbatlar mahalladagi keksa, baobro' kishilar tomonidan ham uyushtirilib uzoq barakali el xizmatidagi inson bo'lib yashashning sirlari haqida qiziqarli tarzda olib borilmoqda. Shuningdek, maktabimiz adabiyot, tarix o'kituvchilari ham o'tmishdagi buyuk shaxslar hayotiga oid manbalarga asoslanib o'quvchilarda buyuk insoniy sifatlarni shakllantirishga erishmoldalar. Hozirgi turli oqimlar, guruhlar va tashqaridan bo'layotgan noto'g'ri g'oyaviy hujumlarni oldini olish va yoshlarni shunday goya va guruhlar muhitiga tushib kolmasliklari uchun ularning darsdan tashqari vaqtlardagi bush vaqtlarini to'g'ri tashkil etish yuzasidan qanday tadbirlar o'tkazilyapti?

Albatta, bolalar ayniqsa kichik maktab yoshi va o'smir yoshdagi bolalar o'sha Siz yuqorida aytib o'tgan g'oyalar va oqimlar muhitiga tushib qolishi ehtimoli yo'q emas. Bularni oldini olish uchun mahalla qo'mitalari qoshida mavjud faollar, mahalla oqsoqollari, obro'li oilalarni ayrim «noqulay oila», tarbiyasi qiyin bolalar bilan alohida ishlashlarini tashkil etamiz. Bunday faollarga pedagogik maslahat, ko'rsatmalar berib boramiz. O'zimiz ham shunday faollar bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishga harakat qilamiz. Chunki, har bir ko'cha, mahallalardagi keksalar, baobro' oilalar, faollar o'sha joyni har tomonlama yaxshi bilishi bilan birga, ularni ma'lum o'ziga mos ta'sir kuchi mavjudki, bularni nazarda tutmoq lozim. Bulardan tashqari, maktab joylashgan mavzeda turli sport maydonchalari, maktabning sport inshootlarida taniqli sportchilar, xomiylar yordamida uchrashuv, musobaqa, tadbirlar tashkillashtirib boriladi. Bu esa bolalar hayotini mazmunli tashkil etish va yo'lga qo'yishdagi eng muhimi ularni noto'g'ri yo'llarga kirib ketmasliklariga imkoniyat yaratiladi.

Ota - onalarni bu borada beminnat ko'rsatilgan har tomonlama yordamlarini bu o'rinda aytib o'tish o'rinlidir.

Suxbatimiz ohirida o'quvchilar va ularning ota - onalariga qanday tilak - istaklaringiz bor?

O'quvchilarga istagim, ular kuchli, mexribon, har qanday qiyinchiliklarni yenga oladigan irodali bo'lib o'sishlarini, ota - onalariga esa kelajakka qat'iy ishonch, qiyinchiliklar ko'rmay ishonch bilan yashashni, o'z farzandlarini kelajak tarbiyasida kattalar ichida ishonchli do'st, mexribon yordamchi topishga harakat qilishini istab qoldim.

Yuqorida keltirilgan, ijimoiy pedagog bilan o'tkazilgan suxbat maktab jamoasida yangi kasb faoliyatini o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish imkonini berdi. Hammadan ham bu faoliyat egasini uslubiy asosini alohida baholash o'rinli.

Ijtimoiy pedagog - tarbiyaviy ishlar metodlarini keng tizimidan foydalanaishga o'z e'tiborlarini qaratish lozim. Bu o'rinda ijtimoiy pedagoglarning bir qismi o'quvchilarni tarbiyalashning an'anaviy vositalari atrofida guruhlashga; shaxsiy suxbat; u yoki bu ijodiy faoliyat ko'rinishiga o'smirlarni jalb etishga, ayrim o'quvchilarga nisbatan sinf tarbiyaviy ishlarini topshirishga harakat qilishadi. Lekin, ijtimoiy pedagog ishlarini o'ziga xosligi bir qator yangi faoliyat usullarini yuzaga chiqardi. Ularning ko'pchiligi maktab tarbiyaviy ishlarini va maktabdan tashqari tashkiliy ishlarni birlashtirish g'oyasidan farqlanadi. Bu mahalladagi jamoat tashkilotlari

bilan hamkorlik; ma'sul diniy idoralar va mahalliy intellegansiya vakllari bilan birgalikdagi faoliyat; maktablarga xomiylik qiluvchi tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatish va bu aloqalarni mustaxkamlash kabilardir.

Bunday o'zaro hamkorliklar ijtimoiy kasalliklarni rivojlanib ketishini oldini olish maqsadlariga to'g'ri keladi. Bu borada salbiy oqibatlarga olib keluvchi xulqiy odatlarni oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarga:

Maktab tarbiyaviy ishlarini norkologik dispanser, o'smir yoshdagilarni huquq buzarliligini oldini olish tashkilotlari bilan birgalikda olib borishni kuchaytirish; ota - onalar bilan hamkorlik; kichik yoshdagi bolalarni tarbiyasida yuqori sinf o'quvchilari yordamidan foydalanish va boshqalarni keltirib o'tish mumkin.

Tarbiyaviy ta'sir ayniqsa, qaltis gruppaga ta'sir faoliyati bilan ham bevosita bog'liq bo'lib, biz avvalo bunday guruhlarni ularni o'rab turgan «do'stlari» ta'siridan ajratishni va maktab jamoasi; o'quvchilar ota - onalarini, maktabdan tashqari tashkilotlar faoliyatlarini ayrim o'quvchilar xatolarini tuzatish maqsadida, ular kuchlarini birlashtirishdan iborat.

Har bir ijtimoiy pedagog ishining muhim o'ziga xosligi, bolalar xulqining axloqiy asosini buzilishiga olib keladigan aniq faktlarini aniqlash, bartaraf etishga yo'naltirilishi kerak.

Ijtimoiy pedagog har bir kichik muhitda, o'smirda o'z tengdoshlari, o'quvchilar va o'qituvchilar, bolalar va ota - onalar o'rtasida insonparvarlik etikasiga rioya qilishni, bu esa o'z navbatida ular ma'naviy dunyosini shakllanishiga yordam bermog'i lozim.

Eng muhimi kelajak jamiyat a'zosida zarur bo'lgan; o'z xatti - harakati uchun javob beradigan; g'amxo'rlik, beminnat ish qilishlik, murakkab sharoitlarda irodaviy kuch topa oladigan, qiyinchiliklar yenga oladigan, mehnatsevar, ona - vatanga cheksiz muxabbat, kamtarlik, minnatdorchilik va boshqa sifatlarni shakllantirishlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

- 1) Ijtimoiy pedagogning asosiy vazifalari?
- 2) Ijtimoiy pedagog faoliyatining o'ziga xosligi nimada?
- 3) Ijtimoiy pedagog ijtimoiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari qaysilar?
- 4) Ijtimoiy pedagog faoliyatida foydalanadigan qanday metodlarni bilasiz?

Mavzu: Ijtimoiy pedagog tarbiyaviy ishlarining o'ziga xosligi.

Reja:

1. Ijtimoiy pedagog faoliyatida oila muxitini o'rganish zaruriyati.
2. Ijtimoiy pedagogning oilaga yordami..
3. Oilada nogiron bola va ijtimoiy pedagogning ular bilan ishlashi.

Tayanch tushunchalar: Notinch oila, oilaviy inqiroz, oligofrenopedagogika, reabilitatsiya. Oilada tarbiya an'analari asrlar davomida shakllangan .

Aflotun yashagan davrdan hozirgi kunimizgacha olimlar va pedagoglar insonning rivojlanishi va shakllanishi uning aqliy, jismoniy ma'naviy qobiliyatlari, uning sog'ligi va salomatligi. va uning axloqiy sifatlariga faqat ota - onalari ta'sir o'tkazishi mumkin.

Agar ota - onalar o'z farzandlari salomatliklari haqida g'amxo'rlik qilsalar, ularning mexir va qalb qo'ri bilan tarbiya qilsalar unda u farzandlar har xil zararli illatlardan xoli bo'ladi.

Ota - ona tarbiyasining natijasi, ularni qattiq qo'lligi va yumshoqligiga bog'lik, emas, balki bolaga bo'lgan xis tuyg'ulariga bog'liq.

Ota - onalar bilan bo'ladigan suxbatlarda ijtimoiy pedagog birinchi navbatda oilada bola tarbiyasi masalasiga jiddiy e'tibor beradi.

Oilada bolani intizomga o'rgatish kerak. Binobarin u bolaning aqliy qobiliyatini to'g'ri rivojlanishda muhim rol o'ynaydi .

Tartib - intizomga bolalikdan o'rgangan kishi butun umr shunga rioya qiladi. Bunda kun tartibiga va uydagi bolaning vazifalari va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada ijtimoiy pedagog o'z ishini bolani o'rganishdan boshlaydi.

Quyida turli xildagi oilalar bilan ish olib boruvchi ijtimoiy pedagog faoliyati bilan qiziqib ko'rsak.

1. Notinch oila; bunday oilada bola turli qarama qarshiliklar, janjallar qurshovida bo'ladi, ota - onasi ichuvchi va norkaman, kasalvand, hozirgi zamon sharoitida bunga yana ishsizlik qo'shiladi.

2. Ota – onasi yo'q, bola buvisinikida yoki qarindosh urug'inikida tarbiyalanadi.

Yoki ota —onasi undan voz kechgan. Xuddi shunday oilalardagi bolalar tarbiyasida, xulqida ko'plab nuqsonlarni kuzatish mumkin. Ijtimoiy pedagog oilaga zarur, chunki zamonaviy maktab, o'quvchilarni o'qishi, bilim olishi bilan band. 2/3 qism ota - onalar esa bola tarbiyasidagi qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ijtimoiy pedagog oiladagi xolatni o'rganishda uni qanaqa oila bilan ish olib borayotganligini e'tiborga olishi lozim.

1. U shahar yoki qishloq oilasimi.

2. Ommaviy yoki zamonaviy oilami.

3. Ko'p bolali va to'liqsiz oilami.

4. Harbiy xizmatchilar oilasimi.

5. Balog'atga yetmagan yosh ona oilasimi.

6. Milliy va xokozo.

Hozirgi zamon sharoitida oilada bolani har tomonlama tarbiyalash uchun, uni iqtisodiy ta'minlash, ushbu faoliyatga keksalar e'tiborini jalb etish, oilaviy muhitni yaratish kerakki bunda bola tarbiyasi uchun hamma shart - sharoit yaratilgan bo'lsin. Ijtimoiy pedagog turli oilaviy muammolarga duch kelishi mumkin. Bular:

Bemor va nogiron bolalar;

Keksa nafaqaxo'r va nogiron ota - onalar;

Ichuvchi va giyoxvandlar;- Daydi bolalar;

Ajralishgan ota - onalarning bolalari;

Albatta ijtimoiy pedagogning birinchi navbatdagi vazifasi oilani inqiroz vaziyatidan olib chiqish. Inqirozni oldini olish va barham topishiga ko'maklashish.

Oilaviy inqirozni oldini olishga davlat tomonidan beriladigan moddiy yordam, imtiyozlar va ijtimoiy yordam kiradi. Ijtimoiy pedagog pedagogik muammolarni hal qilish bilan birga iqtisodiy tibbiy va psixologik vazifalarni ham ijobiy hal qilishga to'g'ri keladi.

Asosiy maqsad oilaning ichki kuchi va salohiyatini, inqirozni bartaraf qilishga safarbar etish. Buning uchun birinchidan muammolarni taxlil qilish kerak. Ikkinchidan mutaxassislar bilan maslahat olib borish kerak. Uchinchidan inqirozdan chiqish yo'llarini aniqlash kerak.

Ijtimoiy pedagogning oilaga beradigan yordami nimalardan iborat?

1. Oilaga turli nafaqa va ijtimoiy imtiyozlar berish tartib qoidalari haqida maslahat berish.

Oila daromadini ko'payishiga yordam berish.

Yolg'iz onaga yordam berish.

Ijtimoiy pedagog yordamida muhtoj oilalarga yakka - yakka yoki guruh bo'lib mashg'ulotlar o'tkazish.

Ijtimoiy pedagogning ish uslublari: birinchi navbatda ijtimoiy pedagog o'z ishini oilani o'rganishdan boshlaydi. Oilaviy muloqat, sharoit, oila a'zolarining o'zaro bir - biriga bo'lgan munosabati, ijtimoiy pedagogga bolaning oilada tutgan o'rni haqida tasavvurga ega bo'lishiga yordam beradi. Oilani o'rganib bo'lgandan so'ng, u oilada yangi munosabatlarni yo'lga qo'yishga kirishadi. Buning uchun u oilani turli klublarga, salomatlik guruhlariga, mahallada o'tkaziladigan turli tadbirlarga jalb etish orqali erishish mumkin.

Muvofaqqiyatga erishishning birinchi metodi ishontirish metodi.

Ushbu metod yaxshi samara berishi uchun tarbiyalanuvchi o'zi qiyin vaziyatdan chiqib ketish yo'llarini topishga yordam berish.

Amaliyotda shunday narsa qo'llanadiki ijtimoiy pedagog, oila haritasini tuzadi. Bunda oila a'zolarining har biriga harakteristika beriladi. Tug'ilgan kunlari, oilaning esda qolar kunlari yoziladi. Oila maqomi, yashash sharoiti, qo'shnichilik, diniy va miliy mansubligi. Haritaga qo'shimcha qilib oilada bola tarbiyasini o'rganishni ham kiritish mumkin.

Qanday va qancha vaqt ota - onalar bolalar bilan vaqtini o'tkazadi, ularning umumiy manfatlari bormi, ularni muloqat shakllari, bo'sh vaqtlarini birga o'tkazadilarmi, ularning qiziqishlari mexmonga, mahallada o'tkaziladigan tadbirlarga birga boradilarmi?

Ota - onalarning bolalar haqida nimalarni bilishi muhim rol o'ynaydi?

Bola nimaga qiziqadi, nima o'qiydi, orzusi nima, kim bilan do'st, sinfdagi boshqa bolalar bilan munosabati, maktab miqyosidagi munosabati, yaxshi ko'rgan o'qituvchisi, fani, bolaning salomatligi va uning muammolari.

Ijtimoiy pedagogning asosiy ishlaridan biri nogiron bolaga ega bo'lgan oila bilan olib boradigan ishi hisoblanadi.

Amerikalik olimlarning takidlashicha u yoki bu nuqsonga ega bo'lgan bolalar hozirda, har 7 oilaning birida uchraydi. Bunday oilalarda ota - onalarning bolaga bo'lgan munosabatini o'rganish kerak.

O'z bolasining nuqsanini ota - ona qanday qabul qilyapti?. Bu yerda ijtimoiy pedagogning ziyrakligi muhim rol o'ynaydi. Oila katta qiyinchilikni boshdan kechirmoqda. Agarda shu ijtimoiy, iqtisodiy qiyinchiliklarga bemor bola muammosi qo'shilsa, qanday vaziyat vujudga kelishini tassavur qilib ko'ring. Ko'proq bunday oilalarda ona ishlay olmaydi. Bu fojeaga olib keladi. Ota yoki ona o'z joniga qasd qilishi mumkin yoki ichkilikbozlikka berilib ketishi mumkin.

Bulardan tashqari ijtimoiy pedagog ota - onalarni ham diqqatini jalb etishi ham darkor.

Ularning shu vaziyatdan chiqib ketish yo'llari, bola xatti harakatidagi ijobiy tomonlarini topib o'shalarga ko'proq ahamiyat berishi lozim bo'ladi.

Ijtimoiy pedagog ota - onalarga, bemor bolalarga qarash parvarishlash, tarbiyalash, o'qitish uchun sharoit yaratish yo'llarini ko'rsatish kerak.

Ota - onalar o'z navbatida xuddi shunday o'zlariga o'xshagan oilalar bilan hamkorlikda va aloqada ish olib borishi maqsadga mofiq bo'ladi.

Ijtimoiy pedagog ish foliyatida aqliy rivojlanishdan orqada qolgan farzandi bor oilaga ham duch kelishi mumkin.

Oligrofen pedagogika pedagogika fanining kichik bir soxasini tashkil etadi. Ijtimoiy pedagog ijtimoiy pedagogikaning ish soxasi bilan ham shug'ullanadi. Mutaxassis sifatida uning assosini va mazmunini yaxshi bilishi, ongli tushinishi va kerakli bo'lgan paytda shu soxa bo'yicha amaliy yordam berishga tayyor turishi talab etiladi.

Nogiron bolalari bor oilalar.

Ijtimoiy pedagog shunday oilalar haqida ma'lumotlarga ega bo'lgandan so'ng, ularga yordam berish rejalarini tuzadi va shu bolalar faoliyati nazoratini o'rnatadi.

Har bir bola uchun reabilitatsiya (tiklash) yani qayta tiklash rejasini tuzadi va amalga oshirishga kirishadi.

Nogiron bolalarni davolash markazlarida psixolog - nevropatolog, logoped, massajist, defektolog, davolash fizkulturasi bilan shug'illaniruvchi mutaxassis faoliyat ko'rsatadi.

Ijtimoiy pedagog shu mutaxassislar bilan yaqin aloqada, hamkorlikda ish olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy pedagogning ish faoliyati aqliy zaif bolalarga bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishda, yordam berishdan iboratdir.

Bemor bolalarni sog'lom bolalar bilan munosabatini o'rnatish va muloqotga tayyorlash dasturlarini tuzish kerak. Bunda tanlov, kinofilmlar va kitoblar muxokamasi, tugilgan kunlarda ishtirok etishni ta'minlash kerak. Nogiron bolalarni mehnat faoliyatiga jalb etish masalasi ham ijtimoiy pedagogning faoliyat doirasiga kiradi (foto, tikuvchilik ishlari, poyabzal tamirlash, yog'och o'ymakorlik va boshqalar).

Nazorat savollari:

- 1) Oilani o'rganishda ijtimoiy pedagog nimalarga e'tiborni qaratish zarur?
- 2) Oilaviy munosabatlarda ota-onaning ijtimoiy o'rni nimada?
- 3) Ijtimoiy pedagogning oilaga yordami nimadan iborat?
- 4) Ijtimoiy pedagogning nogiron bolalar bilan ishlashda nimalarga e'tibor berishlari kerak?

XULOSA:

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, ijtimoiy pedagogika mustaqil fan tarmog'i sifatida o'zining nazariy va amaliy mohiyatiga ega. U bugungi kunda ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida o'zining yorqin ifodasini topmoqda.

Mustaqilligimizning dastlabki kunidan e'tiboran mamlakatimizda ijtimoiy pedagogik fikrlarni rivojlantirish asosida mazkur fanni yanada mukammallashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Buni hozirda mazkur fan bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining keng ko'lamda olib borilayotganligi, matbuot sahifalarida esa bu boradagi tadqiqot natijalarining, ilg'or pedagogik tajribalarning yoritilib borilayotganligi bilan izoxlash mumkin.

Ushbu fanning o'qitilish samaradorligi esa:

- DTS, fan dasturi talablariga javob beradigan darslik va qo'llanmalarning bir necha variantlarda yaratilishi;

- mashg'ulotlar jarayonida ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llashga doir ishlanma, tavsiyalarning ishlab chiqilishi;

- o'qitish jarayonida ta'lim-tarbiyaning qonuniyat va tamoyilidagi uzviyligiga amal qilinishi;

- o'qitishda ta'limning zamonaviy va innovatsion usullari (tanqidiy fikrlash, aqliy xujum, kichik guruhlar bilan ishlash, muammoli topshiriqli, "debat", "klaster" kabi) ning qo'llanishi;

- mashg'ulotlar jarayonida multimediyali va masofali o'qitishning amalga oshirilishi;

- o'qitishda fanlararo uyg'unlikning amalga oshirilishi;

- talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ish shakllarining boyitilishi;

- ilg'or pedagogik tajribalarning ommalashtirilishi;

- omma orasidagi ijtimoiy holat, kayfiyatni o'rganishga doir sotsiologik tadqiqotlarga talabalarni keng jalb etilishi;

- ijtimoiy pedagogika bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni pedagogik amaliyotga tadbiq etish;

kabilar bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekistonni siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning asosiy tamoyillari. T.: O‘zbekiston 1995
2. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. T.: O‘zbekiston 1998
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: O‘zbekiston 1999
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O‘zbekiston 1998
5. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T. Ma’naviyat 2008.
6. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari. T.: O‘zbekiston, 2001
7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston 2003
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi”gi qonuni. T.: “Sharq” 1997
9. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.: “Sharq” 1997
10. Begmatov A., Quraev M. Ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalari. T.: OPI to‘plami. 1998
11. Quronov M.Q. Qurboniyazova Z.Q. Ijtimoiy pedagogika. T.: 2003
12. Bogarova V.G. Sotsialnaya pedagogika. Moskva. 1994
13. Harchev A.G. Sotsialnoe vospitanie. Moskva, 1990
14. Qurboniyazova Z.Q. Ijtimoiy tarbiya muammolari. Halq ta’limi, 2003, 6-son
15. Isaqova M. Shaxs ijtimoiylashuvida mahalla. – Halq ta’limi 2003, 3-son
16. Sotsialnaya pedagogika M.A.Galaguzova taxririya. Moskva «Vlados”, 2000
17. Istoriya sotsialnoy pedagogiki M.A.Galaguzova taxrir ostida. Moskva. «Vlados” 2001
18. Mudrie. A.V. Sotsialnaya pedagogika. Moskva, 2003
19. Podlasiy I.P. Pedagogika: 100 vaprosov-100 otvetov. Moskva, 2001

MUNDARIJA

Kirish.....	4
Ijtimoiy pedagogika haqida tushuncha.....	5
Ijtimoiy pedagogika fan sifatida.....	14
Ijtimoiy pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi.....	21
O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogika fani	27
Ijtimoiylashuv-ijtimoiy pedagogikaning asosiy muammosi.....	36
Ijtimoiy pedagogikada me’yor va me’yordan og‘ish masalasi.....	51
Ijtimoiy pedagogikada devyatsiya xodisasi.....	56
Bola shaxsining rivojlanishi va uning muhitga bog‘liqligi	64
Ijtimoiy pedagogika amaliy fan sifatida	68
Ijtimoiy pedagogni tarbiyaviy ishlarining o‘ziga xosligi. Ijtimoiy pedagog uning kasbiy maxorati	76
Xulosa.....	82
Foydalanilgan adabiyotlar.....	83

K.Turg'unboev, M.Tolipov, I.Oxunov

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA ASOSLARI

(o'quv qo'llanma)

Muharrir	I. Karimov
Texnik muharrir	T. G'aniyev
Musahhih	I. Ubaydullayev
Sahifalovchi	I. Po'latov

Bosishga ruxsat etildi 06.07.08 hisob
Adadi 500 nusxa, xajmi 8,5 bosma taboq

«Fan va texnologiya» nashriyoti:
Toshkent, Olmazor ko'chasi 171-uy